



Xalq so'zi

O'zbekiston —
kelajagi
buyuk
davlat

2023-YIL — INSONGA E'TIBOR VA SIFATLI TA'LIM YILI


1991-yil 1-yanvardan chiqa boshlagan • WWW.XS.UZ • E-mail: Info@xs.uz • 2023-yil 8-sentabr, № 188 (8531)

Juma Saytimga o'tish uchun QR-kodni
telefoningiz orqali skaner qiling.



KOREYA RESPUBLIKASI BILAN STRATEGIK SHERIKLIKNING YANGI IQTISODIY KUN TARTIBINI SHAKLLANTIRISH MUHIMLIGI QAYD ETILDI

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev
7-sentabr kuni Koreya Respublikasi Bosh vazirining o'rinbosari,
iqtisodiyot va moliya vaziri Chxu Gyon Xo boshchiligidagi
delegatsiyani qabul qildi.



O'zbekiston bilan Janubiy Koreya o'rtasidagi alohida strategik sheriklik munosabatlarini yana-da mustahkamlash va ko'p qirrali hamkorlikni kengaytirish masalalari ko'rib chiqildi.

Uchrashuv avvalida Bosh vazir o'rinbosari Chxu Gyon Xo davlatimiz rahbariga Koreya Respublikasi Prezidenti Yun Sok O'ning salomi va eng ezgu tilaklarini yetkazdi.

Suhbatda azaldan yaqin do'stlik rishtalariga, xalqlarimizning mentaliteti, an'ana va qadriyatlarini o'xshashligiga asoslangan ikki tomonlama aloqalar izchil rivojlanib borayotgani alohida mamnuviyat bilan qayd etildi.

O'zbekiston Prezidenti Janubiy Koreya bilan keng ko'lamli hamkorlikning yangi

iqtisodiy kun tartibini shakllantirish masalalariga to'xtaldi.

Keyingi yillarda o'zaro savdo va investitsiya ko'rsatkichlari barqaror oshib bormoqda. O'tgan yilda tovar ayirib olish 24 foizga ko'paydi. Mamlakatimizda qariyb 1 mingta qo'shma korxonalar faoliyat yuritmoqda. Koreyadan investitsiyalar hajmi 7 milliard dollardan oshdi.

Koreya xalqaro hamkorlik agentligi, Koreya Eksimbanki va uning fondlari bilan ko'p yillar davomida samarali hamkorlik qilinayotgani, ular bilan birgalikdagi loyihalarning umumiy portfeli 3 milliard dollardan ziyodni tashkil etgani yuqori baholandi.

Muvaffaqiyatli amalga oshirilgan ko'shma loyihalarda qatorida ko'p tarmoqli bolalar shifoxonasi, to'qimachilik

texnoparki, qishloq xo'jaligi mashinasozligi va nodir metallar bo'yicha markazlar qayd etildi.

Janubiy Koreyaning yetakchi kompaniyalari bilan texnologik va investitsiyaviy sheriklikni kengaytirish, ta'lim va sog'liqni saqlash sohasidagi ijtimoiy ahamiyatga ega loyihalarni jadallashtirish, infatuzilma, "yashil" energetika, davlat boshqaruvi, moliya, raqamlashtirish va kadrlar tayyorlash borasidagi qo'shma loyihalarni ilgari surish amaliy hamkorlikning ustuvor yo'nalishlari sifatida ko'rsatib o'tildi.

Ikki mamlakat hududlari o'rtasida samarali muloqotlarni yo'lga qo'yish va madaniy-gumanitar almashinuvni faollashtirish uchun keng imkoniyatlar borligi ta'kidlandi.

BMT OZIQ-OVQAT VA QISHLOQ XO'JALIGI TASHKILOTI BILAN STRATEGIK SHERIKLIKNING USTUVOR YO'NALISHLARI BELGILAB BERILDI

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 7-sentabr kuni
Oziq-ovqat xavfsizligi bo'yicha xalqaro konferensiyada ishtirok etish uchun
mamlakatimizda bo'lib turgan BMT Oziq-ovqat va qishloq
xo'jaligi tashkiloti (FAO) bosh direktori Syuy Dun'yuyun qabul qildi.



Uchrashuv avvalida mamlakatimiz yetakchisi yuqori darajali mehmonni Birlashgan Millatlar Tashkilotining yetakchi tarmoq tuzilmasi rahbari etib qayta saylangani bilan qutladi hamda shu kunlarda Samarqand shahrida o'tayotgan konferensiyani qo'llab-quvvatlagani va uning ishidagi shaxsan ishtirok etayotgani uchun minnatdorlik bildirdi.

FAO bosh direktori O'zbekiston Prezidentini global miqyosda dolzarb bo'lgan mavzudagi ushbu xalqaro konferensiyani o'tkazish tashabbusi muvaffaqiyatli ro'yobga chiqqani va

tadbir yuksak darajada tashkil etilgani bilan tabriklati.

Oziq-ovqat xavfsizligiga tahdid solayotgan bugungi xavf-xatarlarga qarshi, shu jumladan, mintaqada darajasida kurashish masalalari yuzasidan fikr almashildi.

Agar tarmoqni rivojlantirishdagi nomutanosibliklar, suv resurslarining tanqisligi, qo'shimcha qiymat yaratishning uzun va samarasiz zanjirlari, logistikadagi uzilishlar va boshqalar barqaror rivojlanish uchun asosiy xatarlar sifatida qayd etildi.

O'zbekiston va FAO o'rtasida 2030-yilga qadar mo'ljallangan yangi

hamkorlik dasturiga qishloq xo'jaligini ilmiy tadqiqotlar va innovatsiyalar asosida modernizatsiya qilish, agrar sohani raqamlashtirish, moliyaviy qo'llab-quvvatlashning ta'sirchan vositalarini amalga oshirish va agroziq-ovqat tizimini boshqarishning samarali mexanizmlarini joriy etish bo'yicha qo'shma tadbirlarni kiritishga kelishib olindi.

O'ZA.

O'zbekiston Respublikasi
Prezidenti Matbuot xizmati suratlari.

OZIQ-OVQAT XAVFSIZLIGI BO'YICHA XALQARO KONFERENSIYA ISHTIROKCHILARIGA

Hurmatli anjuman ishtirokchilari, xonimlar va janoblar!

Siz, azizlarni qadimiy va go'zal Samarqand shahrida oziq-ovqat xavfsizligiga bag'ishlab o'tkazilayotgan xalqaro konferensiyaning ochilishi bilan chin qalbimdan tabriklayman.

Mazkur anjuman dunyoning 32 ta davlatidan 620 nafardan ziyod xorijiy mehmon hamda 30 dan ortiq nufuzli xalqaro tashkilotdan vakillar g'atnashayotgani unga jahon miqyosidagi katta qiziqish va e'tibordan dalolatdir.

Albatta, ushbu konferensiya uchun aynan Samarqand shahri tanlangani bejiz emas. Qariyb uch ming yillik tarix va madaniyatga ega bo'lgan bu ko'hna shahar asrlar davomida Buyuk Ipak yo'lidagi muhim chorraha bo'lib kelgan.

Sizlarga yaxshi ma'lumki, oziq-ovqat xavfsizligi, uni barqaror yetkazib berish, ochlik va qashshoqlikka qarshi kurash masalalari bugun ham o'ta dolzarb bo'lib qolmoqda.

So'nggi o'n yillarda "yashil inqilob" va innovasion texnologiyalarning keng joriy etilishi tufayli qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi keskin oshdi, tobora ko'payib borayotgan dunyo aholisini oziq-ovqat bilan ta'minlashda sezilarli yutuqlarga erishildi.

Afsuski, keyingi paytda koronavirus pandemiyasi, jahon siyosati va

iqtisodiyotdagi inqirozlar qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetkazib berish tizimida zanjirlarning uzilishi va narxlar oshishiga sabab bo'ldi.

Bundan, ayniqsa, rivojlanayotgan mamlakatlar jabr ko'rmoqda. Global iqlim o'zgarishlari, qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat tizimiga investitsiya hajmi kamayishi vaziyatni yana-da og'irlashtirmoqda. Bu esa Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishni xavf ostida qoldirmoqda.

O'zbekiston Respublikasi BMT Bosh kotibi Antoniu Guterrish janoblarining 2021-yilda oziq-ovqat tizimlari bo'yicha global sammit o'tkazish borasidagi tashabbusini birinchilardan bo'lib qo'llab-quvvatladi. Bugungi anjuman ana shu sammitning mantiqiy davomidir.

Hozirgi vaqtda qishloq xo'jaligi ekinlarining serhosil, tashqi ta'sirlarga chidamli navlarini yaratish, chorva naslini yaxshilash o'ta muhim ahamiyat kasb etmoqda. Fermerlar va kichik ishlab chiqaruvchilarga axborot-konsalting markazlarini tashkil etish, ularni resurs tejaydigan ilg'or texnologiya va usullar bo'yicha o'qitish uchun agro-konsalting xizmatlari sifatini tubdan yaxshilash ham dolzarb bo'lib bormoqda.

Zamonaviy texnologiyalar va qishloq xo'jaligi texnikasi rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlardagi

fermerlar uchun bir xilda ochiq va hamyonbop bo'lishi kerak. Biz xalqaro moliya institutlarini ushbu masalaga alohida e'tibor qarab, qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilarining "yashil texnologiyalar" dan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish bo'yicha aniq amaliy chora-tadbirlarni ishlab chiqarimiz.

Biz eng zarur mahsulotlar savdosi va transportirovka to'liq erkinlik hamda oziq-ovqat yuklari harakatini tartibga soladigan qoidalarni soddalashtirish tarafdorimiz. Savdo yo'llari xavfsizligi va ochiqligini ta'minlash davlatlararo munosabatlarda o'zgarmas tamoyil bo'lib qolishi zarur.

Qadrlidostlar!
O'zbekiston zaminini o'zining qadimiy va boy dehqonchilik an'analariga, g'oyat xilma-xil, mazali va noyob qishloq xo'jaligi mahsulotlari bilan azaldan shuhrat qozonib keladi.

Agrotarmoq iqtisodiyotimizdagi yetakchi sektorlardan biri bo'lib, mehnatga layoqatli aholimizning 27 foizi ushbu sohada mehnat qiladi.

Mamlakatimizda qishloq xo'jaligini yana-da samarali va resurs tejaydigan sohaga aylantirish, qishloqda aholi hayot darajasini yaxshilash, xalqimizni arzon va barqaror narxlarda xavfsiz va vitaminlarga boy oziq-ovqat mahsulotlari

bilan ta'minlash, sog'lom ovqatlanishni yo'lga qo'yish masalalariga alohida e'tibor berilmoqda.

Bizning yurtimizdan yetib chiqqan, G'arbda "Avitsenna" degan nom bilan shuhrat qozongan buyuk olim Ibn Sino bobomiz o'ra asrlardayoq "Kimki uzoq va sog'lom hayot kechirishni istasa, avvalo, ovqatning sifati va miqdoriga e'tibor qaratsin", deb ta'kidlaganlar.

Albatta, dunyo aholisi o'rtasida sog'lom ovqatlanish madaniyatini shakllantirish — uzoq davom etadigan jarayon. Bu maqsadga erishishda barcha davlatlar hukumatlari, ishlab chiqaruvchilar, olimlar va tibbiyot xodimlari yaqin hamkorlikda ish olib borishlari lozim, deb hisoblaymiz.

Hurmatli anjuman ishtirokchilari!
Sizlar konferensiya davomida ana shunday muhim masalalar haqida atroflicha fikr almashib, global miqyosda oziq-ovqat xavfsizligini mustahkamlashga xizmat qiladigan yangi tashabbus va amaliy takliflarni ishlab chiqasiz, deb ishonaman.

Mehmonast O'zbekiston zaminiga xush kelibsiz!
Mamlakatimizga tashrifingiz mazmunli va samarali bo'lsin!

Shavkat MIRZIYOEV,
O'zbekiston Respublikasi
Prezidenti

O'zbekiston Respublikasining QONUNI "Hayvonot dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 43-moddasiga qo'shimcha va o'zgartirish kiritish haqida

Qonunchilik palatasi tomonidan 2023-yil 16-mayda
qabul qilingan
Senat tomonidan 2023-yil 5-avgustda
ma'qullangan

Mamlakatimizda atrof-muhitni muhofaza qilish, ekologik vaziyatni yaxshilash, shuningdek bioxilmaxilikni saqlash hamda undan foydalanish bo'yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar yovvoyi hayvonlarning tabiiy zotiga oid turlarining, ayniqsa, kamyoq va yo'qolib ketish xavfi ostida turgan turlarining barqaror yashash sharoitlarini ta'minlash hamda saqlab qolish uchun asos bo'lib xizmat qilmoqda.

Shu bilan birga yirtqich va zaharli yovvoyi hayvonlarni yarim erkin sharoitlarda yoki tutqunlikda saqlash, ulardan tijorat maqsadlarida foydalanish, ularni jamoat joylarida sayr qildirishning turli hodisalariga olib kelishi hollari uchrayotganligi aholining hayoti va sog'lig'ini muhofaza qilish maqsadida qonun hujjatlarini takomillashtirishni talab etmoqda.

Shu munosabat bilan yovvoyi hayvonlarni saqlashni tartibga solish maqsadida "Hayvonot dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunida jismoniy shaxslar tomonidan saqlanishi taqiqlangan yovvoyi hayvonlarning ro'yxatini, shuningdek mazkur ro'yxatga kiritilgan yovvoyi hayvonlarni yuridik shaxslar tomonidan saqlash tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasini muvofiqlashtirishni talab etmoqda.

va undan foydalanish to'g'risida"gi 545-I-sonli Qonunining O'zbekiston Respublikasining 2016-yil 19-sentyabrda qabul qilingan O'RQ—408-sonli Qonuni tahririda) (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2016-yil, № 9, 273-moddaga; 2017-yil, № 9, 510-moddaga; 2018-yil, № 4, 224-moddaga; 2019-yil, № 1, 1-moddaga, № 8, 470-moddaga; 2020-yil, № 7, 447-moddaga; 2021-yil, 4-songa ilova; 2022-yil, № 5, 466-moddaga, № 6, 570-moddaga) 43-moddasiga quyidagi qo'shimcha va o'zgartirish kiritilsin:

Quyidagi mazmundagi beshinchi qism bilan to'ldirilsin:

"Jismoniy shaxslar tomonidan yarim erkin sharoitlarda, sun'iy yaratilgan yashash muhitida yoki tutqunlikda saqlanishi taqiqlangan yovvoyi hayvonlarning ro'yxati, shuningdek mazkur ro'yxatga kiritilgan yovvoyi hayvonlarni yuridik shaxslar tomonidan saqlash tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasini muvofiqlashtirishni talab etmoqda";

beshinchi qism oltinchi qism deb hisoblanis.

2-moddaga. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasini:
hukumat qarorlarini ushbu Qonunga muvofiqlashtirsin;
respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari ushbu Qonunga zid bo'lgan o'z normativ-huquqiy hujjatlarini qayta ko'rib chiqishlari va bekor qilishlarini ta'minlasin;
ushbu Qonunning ijrosini, ijrochilarga yetkazilishini hamda mohiyati va ahamiyati aholi o'rtasida tushuntirilishini ta'minlasin.

3-moddaga. Ushbu Qonun rasmiy e'lon qilinish kundan e'tiboran kuchga kiradi.

**O'zbekiston Respublikasining
Prezidenti**
Sh. MIRZIYOEV

Toshkent shahri,
2023-yil 7-sentabr
№ O'RQ—867

GLOBAL MASALAGA MUSHTARAK YONDASHUV

Samarqand shahrida oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashga bag'ishlangan xalqaro konferensiya o'z ishini boshladi. Anjumaning tantanali ochilish marosimida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oziq-ovqat xavfsizligi bo'yicha xalqaro konferensiyasini ishtirokchilariga yo'llagan murojaatini Bosh vazir Abdulla Aripov o'qib eshittirdi.

Marosimda, shuningdek, Birlashgan Millatlar Tashkiloti huzuridagi Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti (FAO) bosh direktori Syuy Dun'yuyun so'zga chiqib, ushbu nufuzli tadbir aynan O'zbekistonda o'tayotgani muhim ahamiyatga egaligini ta'kidladi.

Men O'zbekistonda bu mintaqadagi eng yaxshi va sifatli oziq-ovqat mahsulotlari yetishtiriladigan joy ekanligiga

ishonch hosil qilganman, — dedi Syuy Dun'yuyun. — Mamlakatdagi bugungi siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlik nafaqat mintaqada, balki jahon hamjamiyati tomonidan ham haqli ravishda e'tirof etilmoqda. Qolaversa, bu ko'hna zamin qadimiy sivilizatsiyalar beshigi va bugungi kundagi sa'y-harakatlar, rivojlanish jarayoni tufayli, albatta, yana o'sha darajaga chiqishiga ishonaman. Ayni damda mamlakatda qishloq

xo'jaligini zamonaviy talablar darajasida taraqqiy ettirish, bugungi oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash borasida amalga oshirilayotgan ishlar BMT Taraqqiyot dasturi talablariga to'la mos keladi va bu ishlar muvaffaqiyatli amalga oshirilmoqda.

O'zbekiston hukumati tomonidan BMT huzuridagi Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti texnik ko'magida tashkil qilingan tadbirda dunyoning 32

ta davlatidan 620 nafardan ziyod xorijiy mehmonlar hamda 30 dan ortiq nufuzli xalqaro tashkilotlardan vakillar ishtirok etmoqda.

Anjumaning yalpi majlisida Iqtisodiy hamkorlik tashkiloti, Islom hamkorlik tashkiloti, Shanxay hamkorlik tashkiloti, BMT qo'riqlari va boshqa qishloq xo'jaligi bo'yicha tadqiqotlar olib boruvchi xalqaro markaz (IKARDA) rahbarlari ham so'zga chiqib, mazkur forumdan kutilayotgan natijalarga urg'u berdilar.

Shundan so'ng konferensiyaning sessiya yig'ilishlari o'tkazildi. Ularda ishtirokchilar, xususan, qishloq xo'jaligi ekinlarini yetishtirish va qayta ish-

lash dasturlarini ishlab chiqish, to'g'ridan-to'g'ri o'zaro yetkazib berishning kelishilgan sxemalarini shakllantirish, oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash masalasining barcha sohasida, shu jumladan, suv va yer resurslari, raqamlashtirish va innovatsiyalar, dengizga chiqa olmaydigan mamlakatlarga sifatli va arzon oziq-ovqat mahsulotlarini yetkazib berish uchun samarali logistika, "yashil" va ekpress yo'laklarni tashkil etish masalalariga, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirishdagi innovasion va yaxshi natija bergan loyihalarga e'tibor qarlati.

GLOBAL MASALAGA MUSHTARAK YONDASHUV

Qayd etilganidek, dunyo bo'ylab 2 milliarddan ziyod insonlar sust yoki keskin oziq-ovqat xavfsizligi yo'q holatida yashamoqda. Ularning 566 millioni Osiyo mintaqasida istiqomat qiladi. Bu esa oziq-ovqat xavfsizligi allaqachon dolzarb masalalardan biriga aylanganini ko'rsatadi.

Shunday kelib chiqib, konferensiyada milliy, mintaqaviy va global miqyosda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashning hozirgi holati to'g'risida keng fikr almashilmoqda. 2030-yilgacha ochlikni yo'q qilish, barqaror qishloq xo'jaligini rivojlantirishda aniq vazifalarni o'z ichiga olgan "Nol ochlik"ka erishish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish holati chuqur tahlil qilinyapti. Anjumanda ixtirochilar "Buyuk Ipak yo'li" xalqaro turizm markazida joylashgan ekspozitsiya yuzasida oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash bo'yicha yangi yondashuvlarni o'zida mujassam etgan "O'zbekiston agrooziq-ovqat salohiyati" ko'rgazmasini ko'zdan kechirdilar.

Unda mamlakatimiz hududlaridan qishloq xo'jaligi korxonalarini va ishlab chiqaruvchilarni, klasterlar vakillari o'z mahsulot va xizmatlari bilan qatnashmoqda.

Ko'rgazmada O'zbekiston agrar tarmog'ini isloh qilishdagi yutuqlar taqdimoti o'tkazildi. Mehmonlarga yurtimizning agro va oziq-ovqat sohasidagi salohiyati, oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash bo'yicha yangi yondashuvlari namoyish etildi. Anjumanda qatnashchilarni urug'chilik, bog'dorchilik, chorvachilik, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning klaster, kooperatsiya, agrologistika usullari bilan tanishtirildi.

Xalqaro konferensiya davomida sessiyalarda muhokama etilgan masalalar bo'yicha Samarqand deklaratsiyasi qabul qilindi. — Pandemiya va global chaqiriqlar bizni eski yondashuvlarni qayta ko'rib chiqishni, fermerlar va agrobiznesni rag'batlantirish, shuningdek, qishloq xo'jaligini yuritishning yangi uslublari naqadar muhimligini isbotlayapti, — dedi O'zbekiston qishloq xo'jaligi vaziri Aziz Voitov. — Mamlakatda

agrooziq-ovqat tarmog'ini qayta tashkil qilish jarayoni kechmoqda. Biz qishloq xo'jaligining salohiyatini kuchaytirish va aholini sifatlari oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash uchun jahonning yetakchi olimlarini jalb etishni rejalashtirganimiz. Dunyoda yuqori sifatlari oziq-ovqat bilan yana-da ko'proq insonlar qamrab olinishini ta'minlash uchun yangi yechimlar va innovatsiyalar talab qilinayotir. Mana shular konferensiya va Samarqand deklaratsiyasining asosini tashkil etadi.

Samarqand deklaratsiyasida ish-tirokchi mamlakatlarning qishloq xo'jaligini ekologik jihatdan eng xavfsiz, bioxilmaxillikni qo'llab-quvvatlaydigan usulda, suv resurslaridan optimal foydalangan holda rivojlantirish, aholi, ayniqsa, bolalar va o'smirlarning sog'lom ovqatlanishiga ko'maklashish, maktabda ovqatlanish kompleks dasturlarini joriy qilish, ayollarning agrooziq-ovqat tizimlari transformatsiyasidagi ulushini oshirish, davlat miqyosida kichik va oilaviy xo'jaliklarning ishlab chiqarish, tabiiy va moliyaviy resurslardan foydalanish



Hisson PAYDOYEV o'lgan surati.

imkoniyatlarini kengaytirish kabi maqsadlarni qayd etildi.

Mazkur xalqaro anjuman doirasida bo'lib o'tayotgan sessiyalarda Oliy Majlis Senatining Agrar va suv xo'jaligi masalalari qo'mitasi raisi B. Tojiyev ham global iqlim o'zgarishi sharoitida oziq-ovqat xavfsizligini yana-da ta'minlash, bozorni sifatlari, xavfsiz va arzon oziq-ovqat mahsulotlari bilan to'ldirish, aholining xarid imkoniyatlarini mustahkamlash, tashqi

iqtsodiy faoliyatni liberallashtirish, sog'lom raqobat muhitini rivojlantirish, shuningdek, mazkur sohadagi mavjud tizimni muammolarga barham berish bo'yicha o'z ma'ruzasi, taklif va tavsiyalari bilan ishtirok etmoqda.

Anjuman doirasida bir qator xalqaro tashkilotlar va xorijiy davlatlar delegatsiyalari rahbarlari bilan ikki tomonlama uchrashuvlar bo'lib o'tdi. Konferensiya 8-sentyabr kuni o'z ishini davom ettirdi.

Dina SALEH, Qishloq xo'jaligini rivojlantirish xalqaro jam'armasining Yevropa va Markaziy Osiyo bo'yicha mintaqaviy direktori:

— Samarqandda bo'lib o'tayotgan Oziq-ovqat xavfsizligi bo'yicha xalqaro konferensiyani muhim voqeeli, desak, mubolag'a bo'lmaydi. FAOning navbatdagi yirik xalqaro anjumani oziq-ovqat xavfsizligi, suv resurslaridan foydalanishdagi muammolar, iqlim bilan bog'liq salbiy o'zgarishlar kabi muhim mavzular muhokama qilinyapti.

Anjumanda barcha ishtirokchilar o'rtasida hamkorlikni yo'lga qo'yishga yordam beradigan Samarqand deklaratsiyasi ishlab chiqildi. Men faoliyat olib borayotgan tashkilot BMTning qishloq xo'jaligini rivojlantirishga qaratilgan yagona xalqaro moliyaviy instituti hisoblanadi. Biz 2011-yildan buyon O'zbekistonda ishlaymiz va qishloq xo'jaligini diversifikatsiya qilish hamda oziq-ovqat ta'minotini yaxshilashga qaratilgan loyihalarga sarmoya kiritamiz.

Passero RIKKARDO, Italiya Respublikasi Qishloq xo'jaligi tadqiqotlari va iqtisodiyoti kengashi (CRYEA) tadqiqotchisi:

— Ushbu konferensiya mavzusi butun dunyo iqlim o'zgarishi bilan bog'liq muammo-

larga duch kelayotgan ayni paytda juda dolzarbdir. Shu bois bu tadbirda ishtirok etish sohadagi amaliyotlarni muhokama qilish uchun katta imkoniyat, deb hisoblayman.

Biz mamlakatimiz bilan bir qator masalalar bo'yicha hamkorlik qilmoqdamiz. O'zbekiston ulkan salohiyatga ega va davlatimizning samaradorlik va sohani yaxshilash borasida amalga oshirgan qadamlari e'tiborga molik.

Ishonamanki, ushbu konferensiya hamkorlik doirasida mamlakat uchun ustuvor yo'nalishlarni topishga yordam beradi. Shuningdek, u kelgusidagi sheriklik maqsadlarini belgilab beradi va hamkorlardan O'zbekistonni qo'llab-quvvatlash va kelgusidagi harakatlar uchun tajriba almashish bo'yicha majburiyatlarni oladi.

Ishvan NAD, Vengriya qishloq xo'jaligi vaziri:

— Bu konferensiyada qatnashayotganimdan xursandman. Umid qilamizki, konferensiyada iqlim o'zgarishlarining oziq-ovqat mahsulotlariga ta'siri va shu kabi asosiy muammolarga xalqaro miqyosda qanday omillar munosib yechim bo'la olishiga e'tibor qaratgan holda muzokaralar olib borib, yuqori natijalarga erishamiz. Shuningdek,

biz yuqorida aytilgan muammolar ustida birgalikda ishlash va ushbu masalalarni hal qilishga qaratilgan Samarqand deklaratsiyasini ham ko'rib chiqamiz.

Ochig'ini aytganda, O'zbekiston — Osiyo mintaqasidagi muhim mamlakatlardan biri. Shu nuqtai nazardan, mintaqadagi oziq-ovqat mahsulotlarining ko'plab Yevropa va boshqa davlatlarga bo'lgan yuqori darajadagi eksport ehtiyojining mavjudligini ham buning yaqqol misoli sifatida ko'rish mumkin.

Piter MARGETTS, (Buyuk Britaniya):

— O'zbekiston nihoyatda jozibador o'lka va shu bois bir yildan buyon Toshkentda yashayapman. Biz eksportchilarga Buyuk Britaniya va Yevropaga mahsulot sotish bo'yicha maslahat va ko'mak beramiz. O'z navbatida, Britaniya kompaniyalari O'zbekistonda malakalarini oshirmoqda va tajriba almashayotir.

Ayni paytda global hamkorlik juda muhim. Anjumanda biz atrof-muhit, ijtimoiy mas'uliyat va boshqaruv, fermerlarni qo'llab-quvvatlash haqida so'z yuritdik. Bizda mikromoliya va kichik fermer xo'jaliklari rahbarlarini o'qitish va biznesni rivojlantirish

bo'yicha qiziqarli loyihalar mavjud. Shuningdek, biz O'zbekistonning mazali meva-sabzavotlari va eksport salohiyati haqida boshqarlarni xabardor etishni maqsad qilganmiz.

Vika DUBASSA, konferensiya ishtirokchisi:

— Bugungi kunda dunyo aholisi yer hosildorligi kamayishi, suv tanqisligi, qolaversa, keyingi yillarda pandemiya, beqaror siyosiy vaziyat singari salbiy holatlarga duch kelmoqda. Bu jarayonda, ayniqsa, oziq-ovqat xavfsizligi o'ta dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Shu ma'noda, Samarqand konferensiyasining o'tkazilishi ayni muddaodir. Ishonamizki, bugungi konferensiya orqali agrooziq-ovqat tizimlarining inkiyuzivligi va samaradorligini ta'minlash — qashshoqlik va ochlikni qisqartirishga xizmat qiladigan kichik qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilari qo'llab-quvvatlovchi, xavfsiz va samarali oziq-ovqat tizimlarini yaratishga ko'maklashuvchi tizimlarni ishlab chiqishga qaratilgan hamkorlik aloqalarini o'rnatish kelgusida sezilarli natijalarni beradi.

Abdulaziz YO'LDOSHYEV ("Xalq so'zi").

YO'L-TRANSPORT INFRATUZILMASI — DEPUTATLAR MUHOKAMASIDA

Mamlakat infratuzilmasi, yo'llarning ravon, zamonaviy talablarga javob berishi dolzarb masalalardan sanaladi. Bu yo'nalishda olib borilayotgan ishlar, albatta, e'tiborga molik. Shunday bo'lsa-da, hududlarni obod qilish, qishloq va mahallalarda infratuzilma bilan bog'liq eng muhim vazifalarni tizimli hal etish, ayniqsa, ichki yo'llarni yaxshilash, shu orqali aholi uchun munosib turmush sharoitlarini yaratishda tekzor, yana-da samarali chora-tadbirlarni qo'llashni hayotning o'zi taqozo etmoqda.

Parlamentdagi muxbirimiz xabar qiladi

Shu maqsadda Oliy Majlis Qonunchilik palatasining Sanoat, qurilish va savdo masalalari qo'mitasi tomonidan yaqinda ichki yo'llarni qurish, rekonstruksiya qilish hamda ta'mirlash holati Jizzax viloyati misolida nazorat-tahlil tartibida o'rganildi. Qo'mitaning kecha bo'lib o'tgan yig'ilishi mazkur o'rganish yakunlariga bag'ishlandi.

Unda deputatlar ushbu masala yuzasidan Transport vazirligining axborotini eshitdi.

Qayd etilishicha, sohaga oid munosabatlar huquqiy tartibga solingan bo'lib, doimiy takomillashtirilib borilmoqda. Xususan, "Avtomobil yo'llari to'g'risida"gi Qonunda avtomobil yo'llari sohasini boshqarib, yo'llarning toifalari, ularni moliyalashtirish, qurish va saqlash masalalari batafsil aks etgan.

Keltirilishicha, bugungi kunda mamlakatimizda avtomobil yo'llari tarmog'ining uzunligi o'tkazilgan xatlov natijalariga ko'ra 209,5 ming kilometrni, shundan yo'nalishlar qishloq avtomobil yo'llari, shaharlar, shahar posyolkalari, qishloqlar va ovullar ko'chalarini 141,9 ming km ni tashkil etmoqda.

2017 — 2022-yillar davomida yo'nalishlar qishloq avtomobil yo'llari, shaharlar, shahar posyolkalari, qishloqlar va ovullar ko'chalarini jami 55 va 870 km. uzunlikdagi avtomobil yo'llari hamda 377 ta ko'priklar qurilish, rekonstruksiya qilish va ta'mirlash ishlari amalga oshirilgan.

Shuningdek, Prezidentimizning 2022-yil 25-oktabrdagi tegishli qarori ijrosi doirasida 2022-2023-yillarda Transport vazirligi huzuridagi Avtomobil yo'llari qo'mitasi buyurtmachiligida jami 2 696 ta obyektga 8 209,1 km. avtomobil yo'llari va 63 ta ko'priklar ta'mirlanishi belgilangan bo'lib, ushbu maqsadlarga 3,7 trln. so'm mablag' ajratilgan.

Uning ijrosi doirasida 465,3 km. ichki yo'llarga sement-beton qoplama yotqizilgan bo'lib, hozirda 4 941,8 km. ichki yo'llarga asfalt-beton qoplama yotqizish hamda 2 802,0 km. yo'llarni shag'allashtirish ishlari olib borilyapti.

Yig'ilishda ichki yo'jalik yo'llari tarmog'i masalasiga ham e'tibor qaratildi. Ta'kidlanganidek, mamlakatimizda uning umumiy uzunligi 141882 km. ni tashkil etib, shundan 6 753 km. Jizzax viloyatiga to'g'ri keladi.

Viloyatning ichki xo'jalik yo'llari tarmog'i tarkibiy jihatdan tahlil qilinganda, sement-beton, asfalt-beton va qora qoplama yo'llar umumiy yo'l uzunligiga nisbatan 44 foiz yoki 2 974 km ga teng. Bu ko'rsatkich G'allaorol tumanida 437 km., Jizzax shahrida 201 km. va Zomin tumanida 300 km. ekanligini aytish dardor. Demak, ushbu tarmoqning 66 foiz qismi qum-shag'al va tuproq yo'llardan iborat.

Muhokama davomida deputatlar Sharof Rashidov tumani "Hayrabod", "Kattaqishloq", Jizzax

Ziyoda ASHUROVA ("Xalq so'zi").

EHTIYOJMAND OILALARGA KO'MIR YETKAZIB BERILDI

Ayni kunlarda Oliy Majlis Senati a'zolari mahallalarda va ijtimoiy soha obyektlarida 2023-2024-yilgi kuz-qish mavsumiga tayyorgarlik ishlarining borishi bilan tanishmoqda.

Senator va hayot

Bu borada olib borilgan tizimli ishlar davomida aholi issiqlik hamda elektr energiyasi bilan uzluksiz ta'minlashda mavjud muammolarni bartaraf etish va yuzaga kelishi mumkin bo'lgan salbiy holatlarning oldini olishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Shu jumladan, hududlarda kuz-qish mavsumiga tayyorgarlik ko'rish maqsadida aholini ko'mir bilan ta'minlash borasidagi ishlar tizimli tarzda amalga oshirilayapti.

Xususan, senator Abdug'ani Sanginov tashabbusi bilan Surxondaryo viloyatining Denov, Sariosiyo va Uzun tumanlaridagi mahallalarda "ayollar daftarini" hamda "temir daftar"da ro'yxatda turuvchi ijtimoiy yordamga muhojir, kam ta'minlangan,

boquvchisini yo'qotgan, ehtiyojmand oilalar, yakkay-olg'iz keksalar va moddiy ko'makka muhojir 11 ming 441 nafar fuqaroga homiylik asosida 6865 tonna, ya'ni har bir fuqaroga 600 kilogramdan ko'mir yetkazib rejalashtirilgan.

Senat a'zosi shuningdek, senator Abdug'ani Sanginov tashabbusi bilan Surxondaryo viloyatining Denov, Sariosiyo va Uzun tumanlaridagi mahallalarda "ayollar daftarini" hamda "temir daftar"da ro'yxatda turuvchi ijtimoiy yordamga muhojir, kam ta'minlangan,

Ayni paytda kuz-qish mavsumini betalarot o'tkazish borasidagi ishlar bo'yicha samarali ishlar hamda aholi xonadonlariga ko'mir taqarish davom ettirilmoqda.

"Xalq so'zi".

"MIRANDA QOIDASI"

BARCHA BILISHI SHART BO'LGAN TASHABBUS

Inson huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, odil sudlovni ta'minlash vazifalari oliy yuridik hujjat asosida izchillik bilan amalga oshirilishi mamlakatda huquqiy siyosatning insonparvarligidan dalolat beradi.

Fikr

Huquqni qo'llash amaliyoti tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, huquq-tartibot organlari tomonidan shaxs o'liga olinganda, u nima uchun ushlangani va qanday huquqlarga ega ekanli to'g'risida tushuntirilmayotgani sababli gumon qilinuvchining huquqlari ushlangan davlatqa vaqtincha xavf ostida qoladi. Shu bilan birga, shaxs o'g'ri ruhii holatiga tushishi natijasida aytayotgan har bir so'zi suda o'ziga qarshi dalil sifatida ishlatilishi ehtimolini oshiradi va u huquqiy yordamga juda muhojir bo'ladi. Vaholanki, bunday murakkab vaziyatda jinoyatda aybdor yoki aybsizligini isbotlash majburiyati ushlangan shaxsga emas, aksincha, to'liq tergov organlariga yuklatilganini anglay olmaydi.

O'z huquqlarini yaxshi bilmagani, buni hech kim ularga aniq va batafsil tushuntirganini uchun tergov jarayonida qonungama zid holatlar kuzatiladi. Ayrim hollarda tergov organlari tomonidan shaxs o'liga olinganida uning nima uchun ushlangani, qanday huquqlari borligi to'liq tushuntirilmaganidan shikoyat qiladi.

Ushbu salbiy holatlarning oldini olish maqsadida rivojlangan davlatlarning Konstitutsiya va qonunlarida aks etgan "Miranda qoidasi" yangilangan Bosh qonumimizga kiritildi. Unga ko'ra ushlangan shaxs sikuat saqlash, so'roq jarayonida advokat ishtirokini talab qilishi va boshqa huquqlarga egaligi sodda tilda shaxsga ilk soniyalarda yotqizish tushuntiriladi.

Aytmish joizki, Prezident Shavkat Mirziyoyev parlament a'zolari bilan uchrashuvda Asosiy Qonunimizga kiritilishi lozim bo'lgan — inson qadri, huquq va erkinliklari kafolatlari bilan bog'liq qator tashabbuslarni ilgari surgan edi. O'shanda Konstitutsiyamizda, albatta, "Xabeas korpus", "Miranda qoidasi" degan qoidalarni kiritilishi to'g'risida aniq takliflar bergan edi.

Shu bois yangi ta'hiridagi Konstitutsiyamizning 27-moddasida har kim erkinlik va shaxsiy daxlsizlik huquqiga ega, hech kim qonunga asoslanmagan holda hibsga olinishi, ushlab turilishi, qamoqda saqlanishi yoki qamoqqa olinishi va uning

o'zodligini boshqa tarzda cheklashga yo'l qo'yilmasligi bevosita ko'rsatib o'tildi. Xususan, fuqarolarimiz biron-bir surishtiruv, tergov organlariga olib kelinganda, uning huquqi, shuningdek, ushlab turilishi asoslari, nega davlat organiga keltirilgani haqidagi huquqlari tushuntirilishi shart.

"Miranda qoidasi" — fuqaro birinchi marta davlat organlari tomonidan biron-bir ishda gumon qilinuvchi sifatida jalb etilayotganida, unga birlamchi huquqlari tushuntirib berilishi, demakdir. Ya'ni ushlangan shaxs o'z huquqlari to'g'risida xabardor qilinishi, uni ushlab turgan huquqni muhofaza etuvchi organ xodimi shaxs huquqlari tushunari bo'lganini, degan savolga jobjiy javob olishi lozim.

Masalan, "Siz sikuat saqlashingiz mumkin", "Ushbu ishda bigza aytayotgan har bir so'zingiz suda o'zingizga qarshi dalil sifatida ishlatilishi mumkin", "Siz advokat xizmatidan foydalanish huquqiga ega, agar foydalanish imkoniyatingiz bo'lmasa, davlat tomonidan sizga advokat beriladi" kabi.

Shu o'rinda, ushbu qoidaning bunday nomlanishiga sabab nima, degan savol tushunilishi tabiiy. Ma'lumki, 1966-yil AQShda Ernest Arturo Miranda ismli shaxs o'liga olinadi, gumonlanuvchi sifatida uning birlamchi huquqlari tushuntirib berilmaydi. O'shanda Amerikadagi shtat sudyasi Mirandaga nisbatan, aynan, yuqorida keltirilgan

TAJIRIBA ALMASHISHDA MUHIM O'RIN TUTADI

Oziq-ovqat xavfsizligi barcha davlatlar qatori O'zbekistonning ham mustaqilligi, ijtimoiy-iktisodiy va siyosiy barqarorligini ta'minlash garovi hisoblanadi. Zero, aholi soni o'sishi bilan oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan talab ham oshib boradi. Shu bois mamlakatimizda qishloq xo'jaligini yana-da samarali va resurs tejaydigan sohaga aylantirish, aholi hayot darajasini yaxshilash, xalqimizni arzon va barqaror narxlarda xavfsiz va vitaminlarga boy oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlashga alohida e'tibor qaratilib, ko'plab loyihalar amalga oshirilmoqda. Va bunday sa'y-harakatlar natijasida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi ikki barobar ortdi.

Munosabat

Bugungi kunda yurtimizda turli mulkchilik shaklida bo'lgan oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqaruvchi 22 mingdan ortiq korxonalar faoliyat ko'rsatmoqda. Ular tomonidan joriy yilda jami 75,5 trln. so'mlik mahsulotlar ishlab chiqarish rejalashtirilgan. Ayni chog'da mamlakatimiz o'zining oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash barobarida meva-sabzavot va qishloq xo'jaligining boshqa mahsulotlarini eksport qilish orqali xorijiy davlatlar oziq-ovqat ta'minotiga salmoqli hissa qo'shib kelmayotir. Xususan, BMT Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti (FAO)ning oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash sohada ming yillik rivojlanish maqsadlariga erishgani uchun maxsus mukofotiga sazovor bo'lgan dunyodagi 14 ta davlat orasida O'zbekiston ham borligi e'tiborga molik.

Samarqand shahrida bo'lib o'tayotgan Oziq-ovqat xavfsizligi bo'yicha xalqaro konferensiyada dunyoning 32 ta davlatidan hamda 30 dan ortiq nufuzli xalqaro tashkilotlardan vakillar qatnashayotgan ham tadbirga jahon miqyosidagi katta qiziqish va e'tibordan dalolat beradi.

Qolaversa, konferensiyani o'tkazish joi sifatida aynan Samarqand shahri tanlangani ham bejiz emas. Sababi qariyb uch ming yillik tarix va madaniyatga ega bo'lgan bu ko'hna shahar keyingi yillarda nufuzli xalqaro anjumanlarni o'tkazish borasida katta tajriba to'pladi. Konferensiyadan ko'zlangan asosiy maqsad — mana shunday global muammo bo'yicha fikr, tajriba almashish, taklif, tashabbuslarni o'rta tashlab, foydali yechimlar topishdan iborat. Boisi dunyoda yuzaga kelgan tashvishli siyosiy vaziyat, iqlim bilan bog'liq salbiy o'zgarishlar, suv resurslaridan foydalanishdagi muammolar, sho'rланish, qurg'oqchilik kabi qator omillar tufayli aynan oziq-ovqat xavfsizligi jahon hamjamiyati oldidagi global masala sifatida namoyon bo'lmoqda.

Davlatimiz rahbari ona zaminimiz hayoti, insonlarning kun kechirishi, turmush sharoiti bilan bevosita bog'liq bo'lgan ushbu masalalarni BMT darajasidagi nufuzli min-

barlarda muntaзам ravishda ko'tarib kelmoqda. Shuning barobarida ushbu muammolar yechimi bo'yicha ko'plab taklif, tashabbuslar bildirmoqda.

Keyingi yillarda mamlakatimizda olib borilayotgan tizimli ishlar natijasida qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi keskin oshdi. Agar raqamlarga e'tibor qaratadigan bo'lsa, 2017 — 2022-yillarda 138 ming gektar yangi mevali bog'lar (shundan 74 ming gektar intensiv) va 135 ming gektar yangi uzumzor barpo etildi. Barcha toifadagi xo'jaliklarda mevali bog'lar maydoni 337 ming, uzumzorlar 181,9 ming gektarga yetkazildi. Shu davrda fermer xo'jaliklari va qishloq xo'jaligi korxonalar tomonidan 4,9 ming gektar ixsisxonalar tashkil etilgani bois, umumiy maydon 6,3 ming gektar bo'ldi.

Quvonarli tomoni, amalga oshirilgan sa'y-harakatlar tufayli O'zbekiston Global oziq-ovqat xavfsizligi indeksida 12 pog'ona yuqoriladi. Xususan, 2019 — 2022-yillarda oziq-ovqat xavfsizligi bo'yicha eng yuqori o'sishga erishgan 10 ta mamlakat ichida birinchi o'rinni egalladi.

Mamlakatimizda qishloq xo'jaligi sohasida olib borilayotgan islohotlar haqida gapirganda, paxta va g'alla maydonlarini qisqartirish hisobiga aholiga dehqonchilik qilish uchun 200 ming gektar yer maydonlari ajratilganini ham alohida ta'kidlash joiz. Zero, buning natijasida 700 ming nafar aholi doimiy, 1,3 million nafari esa mavsumiy ish joylariga ega bo'ldi. Umuman aytganda, mamlakatimiz qishloq xo'jaligi sohasida olib borilayotgan islohotlar xalqimizning farovon turmush kechirishi, yurtimiz taraqqiyotini ta'minlashning kafolati bo'lib xizmat qilayotir. Eng muhimi, bu yangilanish va o'zgarishlarni odamlar o'z hayotida sezmoqda. Anjumanda doirasida erishiladigan natijalar esa, shubhasiz, oziq-ovqat mahsulotlarini ko'paytirib, eksport hajmini oshirishga yo'l ochadi.

Odinaxon OTAXONOVA, Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati.

BUGUNGI O'ZBEKISTON

KECHAGI O'ZBEKISTON EMAS



Zotan, bayram nafaqat shodu xurraklik, balki xalqimiz istiqlol yillarida bosib o'tgan shonli yo'lga yana bir bor teran o'zgarish tashlash, erishgan yutuq va kamchiliklarni tahlil qilish, bulardan zarur xulosalar chiqarib, istiqboldagi ishlarni belgilab olish uchun yaxshi imkoniyat hamdir. Bu esa erishilgan yutuqlarning salmog'i, ahamiyati va mohiyatini chuqur anglab yetishga, bugungi dorilamon kunlardan shukronalik hissini tuyish, ertangi kunimizga ishonchimimiz yanada yuksalishiga xizmat qiladi.

Albatta, yutuqlarimiz katta, imkoniyatlarimiz esa undan ham keng. O'zbekistonda davlat mustaqilligi qo'lga kiritilishi bilan o'tgan o'mirlardan iloji boricha xoli bo'lgan milliy iqtisodiyotni shakllantirishga kirishildi. Iqtisodiyotni ma'muriy-rejalı boshqarishdan ko'p ukuladi bozor munosabatlariga o'tkazish boshlandi.

Bozor iqtisodiyotiga esa tegishli me'yori-huquqiy hujjatlarni qabul qilmasdan o'tib bo'lmadi. Qisqa vaqt ichida mulk to'g'risida, tadbirkorlik, xususiy lashtirish, investitsiyalar, soliq va bojxona siyosatı to'g'risida va boshqa ko'pgina qonunlar imzolandi. Keyinchalik qabul qilingan boshqa qonunlar, shuningdek, hukumat qarorlari iqtisodiy o'zgarishlar davomida tartibga solib borildi. Ayni vaqtda institutsional o'zgarishlar davom etdi: mulkchilik va xo'jalik yuritish shakllari o'zgartirildi, bozor infratuzilmasi subyektlari — birjalalar, aksiyadorlik jamiyatlari, tijorat banklari, sug'urta kompaniyalari, lizing xizmatlari va boshqalar faoliyat yuritish boshlandi.

O'tgan davr oralig'ida eng ko'p qonun va me'yoriy-huquqiy hujjatlar mulk munosabatlarini takomillashtirish, raqobat maydonini kengaytirish va erkin tadbirkorlikni rivojlantirish borasida qabul qilindi. Chunki bu omillar har qanday mamlakatda bozor iqtisodiyotining ustunlarini tashkil etadi. Mulq munosabatlarini ishlab chiqarish va jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy qiyofasi hamda mazmunini belgilaydi. Mamlakatimizda kichik, o'rtta va katta xususiy lashtirish deya nomlangan uch bosqichli xususiy lashtirish amalga oshirilganiga qaramasdan, hali ham mulk munosabatlarini takomiliga yetgan deb bo'lmaydi. Chunki bu — to'xtovsiz jarayon, bozor munosabatlarining eng birinchi talabi.

Bu jarayon, ayniqsa, 2016-yildan keyin yana-da jadallashdi. Endi hatto birmuncha muvaffaqiyatli faoliyat yuritayotgan banklar, aksiyadorlik jamiyatlari, yirik xo'jalik birlashmalaridagi davlat ulushi sotuvga chiqariladigan bo'ldi. Xususiy va jamaot mulki, xususiy lashtirish va davlat tasarrufidan chiqarish mexanizmlari orqali shakllantirildi.

Bundan yetti yil muqaddam mamlakatimizda boshlangan keng o'zgarish va shiddatli islohotlar jamiyatimiz hayotidagi ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy munosabatlarni tubdan o'zgartirib, O'zbekistonni jahonga yangi qiyofada namoyon qildi. "Yangi O'zbekiston" iborasi paydo bo'lgani, u xalqaro maydonda real ijtimoiy hodisa sifatida e'tirof etilyotgani, yurtimizda yuritilayotgan siyosatning naqadar to'g'ri va puxta ekanini tasdiqlaydi. Shu yillarda amalga oshirilgan qat'iy islohotlar natijasida mamlakatimiz qiyofasi butunlay o'zgardı.

Xullas, bugungi O'zbekiston — kechagi O'zbekiston emas.

So'nggi yillarda yurtimizda inson qadrini ulug'lash, aholi manfaatlarini ta'minlash, iqtisodiyotni erkinlashtirish va jahon bozorlariga dadil kirib borish bo'yicha

salmog'li yutuqlarga erishdik, deb baralla ayta olamiz. Jumladan, inson huquqlarini amalda eng oliy qadriyat darajasida ta'minlash maqsadida majburiy mehnat va bolalar mehnatiga to'liq barham berildi. So'z va e'tiqod erkinligi, gender tenglikni ta'minlash bo'yicha erishgan amaliy natijalarimiz xalqo hamjamiyat tomonidan e'tirof etilmog'da.

Mamlakatimizda ilk bor kambag'allik mavjudligi tan olindi va uni qisqartirish uchun samarali tizim yaratildi. Bu orqali davlat ko'ma'giga muhtoj oilalar to'liq qamrab olindi. Ayni chog'da qonun ustuvorligini ta'minlash, sud mustaqilligi va odil sudlov institutini mustahkamlash, xususiy mulk daxlsizligini kafolatlash borasidagi islohotlar qat'iy davom ettirilyapti. Aholi va tadbirkorlar manfaatlarini ishonchli himoya qiladigan tizim — ma'muriy sudlar tashkil etildi. Jamiyatda korrupsiyaga murosasız bo'lish muhitini shakllantirish uchun ustuvor vazifalardan biriga aylandi. Xorijiy investor va hamkorlarimiz uzoq kutgan yengillik va imkoniyatlar iqtisodiy islohotlarda o'z aksini topmog'da. Valyuta tizimi erkinlashtirilgani, tashqi bozorlarga chiqish bo'yicha to'liqlar olib tashlangani, 7 mingdan ziyod xomashyo va tovarlarga bojxona bojları bekor qilingani natijasida tashqi savdo aylanmasi ikki karra oshdi.

Shu bilan birga, soliq yukı qariyb 2 barobar kamaygani, soliq ma'murchiligi soddala shg'ani. O'zbekistonda mintaqamizdagi eng jozibador fiskal tizim shakllangan xalqaro tashkilotlar tomonidan e'tirof etilmog'da. Mamlakatimizdagi islohotlarga ishonch ongani tufayli yirik xorijiy sarmoyalar hajmi 2017-yildagiga nisbatan 3 barobar ko'paydi. Umuman, mamlakatimizda qabul biznes muhiti yaratilgani natijasida tadbirkorlar soni 4 barobar oshdi.

Eng muhimi, siyosiy va iqtisodiy islohotlarni iqtisodiy to'liq qo'llab-quvvatlamog'da. Shu yil bo'lib o'tgan referendumda aholining Asosiy Qonunga kiritilgan o'zgartirish va qo'shimchalarni, muddatidan ilgari o'tkazilgan Prezident saylovıda xalqimizning amaldagi davlat rahbari Shavkat Mirziyoyevni qo'llab-quvvatlagani fikrimizga yaqqol misol bo'la oladi.

Albatta, mamlakatning iqtisodiy salohiyati va uning o'sish sur'atlarini belgilaydigan ko'rsatkichlar ko'p. Ammo ular orasida asosiy mezon — bu yalpi ichki mahsulot (YAIM). O'tgan yili mamlakatimizda YAIM 5,7 foizga o'sib, 888,34 trln. so'mni tashkil etdi. Bu — pandemiya oqibatları hali barham topmagın, dunyoda qarama-qarshilik kuchayib, ziddiyatli avjiga chiqqın bir paytda, ya'ni ko'pchilik mamlakatlar iqtisodiyotı ressessiyani boshidan kechirayotgan sharoitda jahondagi eng yuqori ko'rsatkichlardan biridir.

Mamlakatimiz yalpi ichki mahsulotida sanoat mahsulotları 484,7 trln. so'mga, xizmatlar ko'rsatish — 343,3 trln., mahsulotlarga sof soliqlar 60,3 trln. so'mga oshdi. Savdo, turarjoy va oziq-ovqat xizmatlari sohasi 9,3 foizga, transport, axborotlashtirish va aloqa yo'nalishi 14,7 foizga o'sdi. Muxtasar aytganda, aholi jon boshiga YAIM real ko'rinishda 21,15 mln. so'mdan 24,91 mln. so'mga (2254,9 dollar) o'sdi. Taqqoslash uchun: 2021-yilda 5,3 foizga, pandemiya avj olgan 2020-yilda esa 0,1 foizga o'sish qayd etilgan.

Ammo shuni ta'kidlash joizki, yalpi ichki mahsulot hajmining jismoniy o'tirishi pirovard maqsad bo'lmagisi kerak. Iqtisodiy o'sish, bu — bir turdagi mahsulot va xizmatlarning yildan-yilga barqaror ko'payib borishidir.

Mustaqillik, bugungi farovon, tinch-osuda hayot o'z-o'zidan paydo bo'lgani yo'q. Bu qanchadan-qancha insonlarning fidoyiligi, Yurtboshimiz rahnamoligida barcha sohada olib borilyotgan tub o'zgarish va hayotbaxsh islohotlarning, xalqimizning hamjihatligida ezgu maqsad yo'lidagi sa'y-harakatlarining amaliy natijalaridir.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning shu yil 27-iyul kuni qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining o'ttiz ikki yillik bayramiga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish to'g'risida"gi qaroriga muvofiq mamlakatimizda "Yangi hayot uchun, Yangi O'zbekiston uchun!" shiori ostida o'tkazilgan uchrashuvlar, madaniy-ma'rifiy tadbirlarda xalqimizga, ayniqsa, yoshlarimizga ana shu hayot haqiqatini chuqurroq anglatishga alohida e'tibor qaratildi.

Nuqtai nazar

Iqtisodiyotning diversifikatsiyalashuvi, ular tarkibida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, yuqori texnologiyali innovatsion tovar va xizmatlar ulushining ortib borishi esa iqtisodiy rivojlantirishdir.

Agar yalpi ichki mahsulotning o'sish sur'ati aholi real daromadlari, xalq turmush farovonligi ko'rsatkichlari barobarida kechsa yana-da yaxshi. Ana shunda sifat jihatdan o'sishga erishgan bo'lamiz. Bizga bozor tan o'ladigan, xalqning kundalik turmush talablariga javob beradigan ishlab chiqarish muhimidir. Bunga esa birdaniga erishib bo'lmaydi.

Shuni e'tiborga olib, keyingi yillarda milliy iqtisodiyotimizning tarmoq va hududiy tarkibini takomillashtirishga katta e'tibor qaratilmog'da. Sanoat milliy ishlab chiqarishning "suuyak va muskul"ni tashkil etadi va shu sababli, iqtisodiy rivojlantirishning borishini ko'p jihatdan belgilaydi. Sanoat barcha soha, jumladan, o'zini o'zi ham ishlab chiqarish vositalari bilan ta'minlaydi. Shu ma'noda, u o'zini o'zi yaratadigan va tiklaydigan yagona noyob soha. 2022-yilda sanoat ishlab chiqarishi 2021-yildagiga nisbatan 5,2 foiz o'sdi. Bu esa O'zbekistonga Markaziy Osiyo mintaqasidagi mamlakatlar orasida sanoatning o'sish sur'atlari bo'yicha eng yaxshi o'rinlardan birini saqlab qolish imkonini berdi. Mamlakat yalpi ichki mahsuloti tarkibida sanoatning ulushi 26,7 foizni tashkil etdi.

Umuman, sanoat faoliyatining barcha muhim sohasida o'sish tendentsiyasi kuzatildi: tog'-kon sanoatida 102,1 foiz, ishlab chiqarish sanoatida — 105,3, elektr va gaz ta'minoti sektorida 112,7 foiz. Neft xomashyosi va tabiiy gaz qazib olishda 101 foiz, ko'mir — 102,4, metall rudasi qazib olishda 104 foiz natijaning qayd etilishi tog'-kon sanoati rivojlanishida ijobiy dinamika ta'minladi.

Ta'kidlash joizki, oldimizda turgan sanoat sohasidagi muhim vazifalardan biri — ishlab chiqarishning yangi texnologik darajasiga o'tishdir. Shu nuqtai nazardan, mamlakatimizda sanoat ishlab chiqarish tarkibi belgilangan maqsadga muvofiq takomillashtirish deb bo'lmaydi. Chunki qayta ishlab sanoatida ishlab chiqarilayotgan tovarlarning atigi 2,7 foizi yuqori texnologiyali, 20,1 foizi o'rtta-yuqori, 39,4 foizi o'rtta-past, 37,7 foizi esa past texnologiyali ishlab chiqarishga to'g'ri kelmoqda. Bu innovatsion iqtisodiyotga o'tish talablariga to'la mos kelmaydi. Biz industrial iqtisodiyotdan ilm talab, resurs tejaydigan iqtisodiyot turiga o'tishga zo'r berishimiz kerak. Bu shiddatli davr raqobatining, jahon iqtisodiyoti rivojlanishi talabidir.

Qishloq xo'jaligi iqtisodiyotning eng "injıq" sohalardan birı. Chunki uning faoliyati iqlim, ob-havo sharoitı bilan chambarchas bog'liq. Qishloq xo'jaligining rivojlanishi mamlakat oziq-ovqat xavfsizligining muhim sharti sanaladi. Soha sanoatning "noni" — xomashyo manbai hisoblanadi. Qishloq xo'jaligida mineral xomashyodan farqli o'laroq, tiklanadigan resurslar ishlab chiqariladi. Bu jihatdan ham uning ahamiyati katta. Qishloq, o'rmon va baliqchilik sohasi mamlakat yalpi ichki mahsulotining deyarli 27 foizini bermoqda. O'zbekistonda qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish sohasidagi iqtisodiy islohotlar tufayli aniq-ravshan siljishlarga erishilgani ma'lum. Avvalo, qishloqda ko'p ukuladi xo'jalik shakllari tashkil qilish jarayoni nihoyasiga yetgani yo'q, xo'jalik yuritishning yangi maqbul shakllarini qidirish davom etmog'da.

Keyingi yillarda Prezidentimiz tashabbusi bilan klaster tizimi ish boshlandi, lekin u

hali butun bo'y-basti bilan o'zini ko'rsata olganicha yo'q. Hozirgi vaqtda qishloq xo'jaligi barcha mahsulotining 65,9 foizi dehqon xo'jaliklarida, 29,2 foizi fermer xo'jaliklarida va 4,9 foizi sohaga taalluqli tashkilotlarda yetishtirilmog'da. Sutning 93,8 foizi, go'sht — 89,3, kartoshka — 74,7, sabzavot — 60,7, tuxumning 60,5 foizi dehqon xo'jaliklarida yetishtirilayotganini hisobga oladigan bo'lsak, bu sekorga e'tiborni yana-da kuchaytirish lozimligi ayon bo'ladi.

Qishloq xo'jaligidagi muhim muammolar jumlasiga hosildorlik va chorvachilik mahsulotligini oshirish maqsadida seleksiya va urug'chilik, naschilik ishlarini kuchaytirish, qishloq xo'jaligi zararkunandalariga qarshi kurash, ekologik toza mahsulot yetishtirish, atrof-muhitga zararni kamaytirish, qishloq infratuzilmasini rivojlantirish va bu maqsadlarga investitsiyalarni o'stirib borishni kiritish mumkin.



Xizmat ko'rsatish, ya'ni servis sohasi zamonaviy iqtisodiyotlarning qiyofasini belgilab bermoqda. Postindustrial mamlakatlarda xizmat ko'rsatish sohasi yalpi ichki mahsulotning kamida 65 — 70 foizini tashkil etayotir. O'zbekistonda esa xizmatlar sohasi rasmiy hisob-kitoblarga ko'ra, yalpi ichki mahsulotning 38 foizdan ziyodrog'iga to'g'ri kelmog'da. Aloqa va axborotlashtirish, ta'lim hamda tibbiy xizmatlar ko'rsatish hissasi yildan-yilga oshyapti. Keyingi yillarda ko'chmas mulk, yashash joyi va ovqatlanish, ijara va prokat, me'morchilik, kompyuterlarni ta'mirlash bilan bog'liq xizmatlar, shuningdek, individual xizmatlar paydo bo'ldi. AKT xizmatlari jadal o'sish tendentsiyasiga ega bo'lishi kutilmog'da.

Iqtisodiyotni modernizatsiya va diversifikatsiya qilish tarkibiy siljishlarni amalga oshirish, o'xir-oqibatda esa yangi innovatsiyalashgan ishlab chiqarishni barpo etishda investitsiyalarning roli beqiyos. 2022-yilda O'zbekistonda asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmi qariyb 270 trln. so'mni, shundan yangi xorijiy investitsiya va kreditlarning ulushi 41,6 foizni tashkil etgan. O'sish sur'atlari avvalgi yildagiga nisbatan 5 foizdan yuqori bo'ldi. Investitsiyalarning 40 foizga yaqini korxonalar va aholi vositalari, qolgan 60 foizdan ziyodrog'i esa jalb qilingan mablag'lar hissasidir. Umumiy investitsiyalarning 12,3 foizi to'g'ridan-to'g'ri xorijdan yo'natilgan. Kafolatlanmagan hamda boshqa chet el investitsiyasi va kreditlari 23 foizdan oshdi. Barcha investitsiyalarning 9 foizini aholi daromadlari tashkil etmog'daki, bu qariyb respublika byudjetidan ajratiladigan mablag'larga teng.

Investitsiyalarning yarmidan ko'prog'i yangi qurilish, 26,4 foizi kengaytirish, rekonstruksiya va modernizatsiya qilishga ketmog'da. Asosiy kapitalga investitsiyalarni iqtisodiy soha turlari bo'yicha taqsimlaganda



chorak qismidan ko'prog'i qayta ishlab sanoatiga sarflanyapti. Undan keyingi o'rinlarda esa tog'-sanoat majmuasi, turarjoylar qurilishi, elektr va gaz ta'minoti turibdi. Qishloq xo'jaligi, qurilish industriyasi, sog'liqni saqlash, ta'lim, savdo, aloqa va axborot hamda boshqa sohalardagi qurilish ishlari ham e'tibordan chetda qolmayapti.

Dunyoga chiqish uchun O'zbekistonning geografik joylashuvi milliy iqtisodiyotni rivojlantirish ham kuchli, ham zaif jihatları oldindan belgilab qo'ygan. O'zbekistonning Markaziy Osiyodagi barcha davlatlar bilan chegaradosh ekanligi uning mintaq bozorlaridagi ahamiyatini oshiradi. Hudud bo'ylab o'tgan Buyuk Ipak yo'li yurtimizga katta manfaat keltirgan. Ikkinchi

837,9 mln. AQS dollariga yoki 18,6 foizga ko'paygan. Albatta, bundan keyin ham tashqi savdo tarkibi va geografiası takomillashib boradi.

Iqtisodiyot aniq raqamlar, hisob-kitoblar bilan birga, odamlar turmush tarzida yuz berayotgan real o'zgarishlar, natijadorlikni xush ko'radi. Davlat manfaatlarigagina xizmat qiladigan iqtisodiyot rivojlanishdan to'xtaydi. Oxirgi yillarda O'zbekistonda amalga oshirilayotgan tub islohot va yangilanishlar avvalida iqtisodiyotimizdagi miqdor va sifat o'zgarishlari qamrovini kengaytirish, uning bevosita aholi turmushiga ta'sirini oshirishga e'tibor qaratilayotgani boisi ham shundın. Bunda xususiy biznes va kichik tadbirkorlik rivojiga alohida ahamiyat qaratilmog'da.

O'zbekiston mustaqilligining o'tgan yillariga nazar tashlasak, yurtimizda kichik va o'rtta biznes yo'nalishi qo'shni davlatlardagiga nisbatan sekin rivojlangani, ko'rsatkichlar sezilar-sezilmas darajada bo'lgani, katta-katta bizneslar ma'lum insonlar qo'lida bo'lib, aholining asosiy qatlami ular qo'l ostida ishlagani ko'ramiz. Oddiy odamlar uchun tadbirkorlik uddalab bo'lmamas mashhaqqatdek ko'rinardi. Yuqori boj to'lovlari, yer olish, korxonaga ochildagı qator to'siqlar, bir amallab biznesni yo'lga qo'yib olganda ham har kuni eshik qoqadigan soliqchılarga dosh berish oson emasdı. Shu bois ham odamlar tadbirkorlik qilishdan ko'ra, "o'ch qomim, ting qulog'im" qabilida ish tutishni afzal bilgan.

Bugun yangi O'zbekiston iborasini faxr bilan aytayotganimiz bejiz emas. Boisi olti-etti yil oldin ana shu ikki jumla zamirida boshlangan ulkan islohotlar odamlarning o'z imkoniyatlaridan keng foydalanish, istalgan sohada yangiliklar yaratishga qo'rqmay qadam tashlash, asosiy, mustaqil tadbirkor sifatida o'zini sinab ko'rish imkoniyatini beryapti.

Hozirgi paytda mamlakatimizda 510 mingdan ziyod kichik korxonaga va mikrofirmalar faoliyat olib bormog'ga. Kichik tadbirkorlikning yalpi ichki mahsulotni yaratishdagi ulushi 55 foizga yetdi. Kichik korxonaga va mikrofirmalar "kapillyar" tomirlarda iqtisodiyotni ozqintiradi, barcha bo'g'irlarga yetib boradi. Yirik va o'rtta ishlab chiqarishda hosil bo'ladigan "yoriqlarni to'ldiradi, resurslardan samarali foydalanish imkonini beradi, do'konlarni arzon hamda zarur tovar va xizmatlar bilan to'ldiradi, raqobatni kuchaytirish hisobiga mahsulot sifatini oshirish hamda arzonlashtirishga olib keladi.

Asosiy, kichik biznes subyektlari, bozor konkurentlariga tez moslashadi. O'zi kichkina bo'lsa ham uning xizmati katta. Agar ular bozorga o'z holicha, tavakkalchilik bilan emas, balki buyurtma asosida yirik korxonalar bilan integrallashtirib chiqadigan bo'lsa, natija bundan ham yaxshi bo'lishi aniq.

Bundan tashqari, mamlakatimizda yashash sifati oshirish — ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish, qulay turarjoy, toza ichimlik suvi, kanalizatsiya bilan ta'minlash va ekologiyani yaxshilash, maktabgacha va maktab ta'limi, sog'liqni saqlash yo'nalishlarida salmog'li ishlar amalga oshirilmog'ga.

Shu o'rında yana bir muhim jihat. O'zbekiston faol demografik vaziyatga ega mamlakatlar jumlasiga kiradi. Bu yerda tug'lish sur'ati nisbatan yuqori bo'lib, tabiiy o'sish yiliga 731 ming kishi, ya'ni ko'payish sur'ati 2,1 foiz darajasida. Mamlakatimiz umumiy aholisi tarkibida erkaklar va ayollar, shahar va qishloq aholisi nisbatan deyarli tenglashgan. Voyaga yetmaganlar 31,2 foizni, mehnatga yaroqli yoshdagilar — 57,6 va yoshi ulug'lar mamlakat aholisning 11,2 foizini tashkil etmog'ga. Kattalar, go'daklar va ayollar o'limining pasayganligi, nikohlar darajasining yuqoriligi va ajralishlarning nisbatan kamaygani, milliy va diniy an'analarning barqarorligi, tibbiy xizmat hamda aholi turmush darajasining yaxshilanib borayotgani mamlakat aholisining tabiiy o'sishiga ijobiy ta'sir ko'rsatmog'ga. Bu, o'z navbatida, jonajon O'zbekistonimizning iqtisodiy salohiyatini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Eksport va import operatsiyalarini amalga oshirishda transport, aloqa va boshqa kommunikatsiya vositalari muhim rol o'ynaydi. Aloqa xizmatlari tarkibida mobil aloqa 48,5 foizni tashkil etgan. Aholining bu vositalar bilan ta'minlanishi 75 foizdan oshdi. Mamlakatimiz jahon axborot tizimiga faol integratsiyalashib bormog'ga.

O'zbekistonda tashqi savdo aloqalari ham iqtisodiyotda muhim o'rin tutadi. Bugungi kunda O'zbekiston jahonning 204 mamlakati bilan savdo aloqalarini olib bormog'ga. 2022-yilda respublikaning tashqi savdo aylanmasi 50 mlrd. dollardan oshib, 2021-yildagiga nisbatan 7 mlrd.

Xullas, yangi O'zbekiston davlat va jamiyatni boshqarish, xalq farovonligini yuksaltirish, iqtisodiyotni rivojlantirish borasida ko'pchilik uchun o'rnak bo'ladigan mamlakatga aylanmog'da. Amalga oshirilayotgan bunday keng ko'lami ishlarining barchasi mustaqillik — buyuk tarixiy yutuq, yurtimizda yashayotgan har bir inson uchun qadri, sharafi, bardavomligi ko'z qorachig'idek asrab-avaylanadigan bebaho nem'at ekanligining yorqin ifodasidir. U tufayli yangi O'zbekistonimizni o'z qo'llimiz bilan buyurt e'tmog'damiz.

Mansur ESHOV,
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti prorektori,
iqtisodiyot fanlari doktori, professor.

MUVOZANAT ADOLAT MEZONLARI ME'YORDA BO'LISHINI TA'MINLAYDI

Xalqimizda "Tarozning ikki pallası teng bo'lsin" degan hikmatli gap bor. Ayni paytda bu ibora barcha sohalari kabi zamonning eng dolzarb muammosi bo'lgan ekologiya va atrof-muhit muhofazasiga ham tegishli bilan ahamiyatlidir.

Ekologik siyosat

Binobarin, Prezidentimizning mamlakatimiz mustaqilligining o'ttiz ikki yilligiga bag'ishlangan tantanalı marosimdagı nutqida "Bugun bizning oldimizda turgan yana bir muhim masala — ekologik muammolar va suv tanqisligidir. Tarozning bir pallasida o'sib borayotgan qurilishlar, ishlab chiqarish, qishloq xo'jaligi turgan bo'lsa, ikkinchi pallasida har birimiz uchun eng zarur bo'lgan suvni tejash, atrof-muhit ifloslanishining oldini olish va yer resurslaridan oqilona foydalanish masalasi turibdi", degan so'zları ham xuddı shu hikmatga taylanilgan. Anglashiladiki, bunda davlat ekologik siyosatni olib borishda tabiat va jamiyat o'rtasidagi adolat mezonlarining bir me'yorda bo'lishini ta'minlashga e'tibor qaratilishi lozim.

Keyingi yillardagi mustaqil taraqqiyot davrida yangi O'zbekiston ijtimoiy-siyosiy hayotining barcha sohasi kabi mamlakatimizda "yashil" iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, "yashil" investitsiyalarni jalb qilish, ekologik inqirozning salbiy ta'sirini yumshatish maqsadlarida davlat rahbari tashabbusi bilan qabul qilingan "yashil" iqtisodiyotga o'tish strategiyasi muvaffaqiyatli amalga oshirilmog'ga.

Parij kelishuvi majburiyatlariga sodiq qolgan holda "issiqxonaga gazlari"ning yalpi ichki mahsulot birligiga nisbatan solishtirma ajratmalarini 2010-yildagi darajadan 10 foizga qisqartirish maqsadida qayta tiklanuvchi energiya manbalari ishlab chiqarish quvvatini 15 GvTga oshirish, ularning ulushini elektr energiyasini ishlab chiqarish umumiy hajmining 30 foizidan ko'prog'iga yetkazish borasida ham keng qamrovli tadbirlar amalga oshirilayotir. Jumladan, 2021-yilda Karmana va Nurobod tumanlarida har birining quvvati 100 megavatt bo'lgan quyosh fotoelektr stansiyalari ishga tushirilishi nafaqat mamlakatda, balki Markaziy Osiyo mintaqasida ulkan voqea bo'ldi. Mazkur quyosh stansiyalarining har biri 252 mln. kVt/soat elektr energiyasi ishlab chiqarishi orqali 30 mingdan ziyod xonadonlarni elektr quvvati bilan ta'minlash imkonini beradi. Ayni chog'da 80 mln. kub metr tabiiy gaz tejalishiga zamin yaratadi, atmosferaga 160 ming tonna "issiqxonaga gazı" chiqishining oldi olinadi.

Navoiy viloyatining Tomdi tumani-da quvvati 500 MWt bo'lgan shamol elektr stansiyasining ishga tushirilishi esa yiliga 1 mlrd. 800 mln. kVt/soat elektr energiyasi ishlab chiqarishi va natijada yiliga 540 mln. kub metr tabiiy gaz tejalishiga imkoniyat yaratadi. Bu esa atmosferaga 720 ming tonna zararli gaz chiqishining oldi olinishi bilan ahamiyatlidir.

Xavfli darajasi yuqori va o'rtta bo'lgan 200 ga yaqin korxonalarda chang-gaz tozalash uskunalarning modernizatsiya qilinishi hisobiga atmosferaga 2,2 ming tonna chinqirdi gazlari tashlanishining oldi olindi. Shunday chora-tadbirlar natijasida so'nggi 5-yilda atmosferaga tashlanayotgan tashlamalar miqdori 11 foiz kamaygan. Mamlakatda elektromobillar sonining ortishi yoki Toshkent shahrida elektrobuslar harakatining yo'lga qo'yilishi avtotransport vositalari tashlamalarining keskin kamayishiga xizmat qilmog'ga.

Iqtisodiyot tarmoqlarida sudvan foydalanish samaradorligini oshirish maqsadida 1 mln. gektargacha maydonda suv tejovchi sug'orish texnologiyalari joriy etildi. Shuningdek, strategiyaga asosan respublika aholisining ichimlik suvi bilan ta'minlanganlik darajasini 87 foizga yetkazish, 32 ta yirik shahar va 155

ta tuman markazlarida oqova suv tizimlarini yangilash borasida amaliy harakatlar olib borilmog'ga. Hududlarning sanitariyasi va ekologik holatini yaxshilash sohasida mamlakatda 10-yilga mo'ljallangan qattiq maishiy chiqindilar bilan bog'liq ishlarni amalga oshirish strategiyasi tadbir etilmog'ga. Bu esa aholini qattiq maishiy chiqindilarni to'plash va olib chiqib ketish bo'yicha xizmatlar bilan qamrab olishni 100 foizga, hosil bo'ladigan qattiq maishiy chiqindilarning kamida 60 foizini qayta ishlashga zamin yaratadi.

"Yashil makon" umummilliy loyihasi doirasida yiliga 200 million tup ko'chat ekish va ko'chatlarning umumiy sonini 1 milliarddan oshirish orqali shaharlardagi yashil maydonlarni 30 foizdan ortiqroqqa kengaytirish, o'rmon fondi zaxiralari ko'rsatkichini 90 mln. kub metr dan ziyodga yetkazish mamlakatda ekologik barqarorlikni kafolatlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Shu o'rında so'nggi olti yil davomida Orol dengizining qurigan tubida qariyb 1,7 mln. gektardan

ortiq maydonda cho'l o'simliklaridan "yashil qoplamalar" — himoya o'rmonzorlari barpo etilganini yana bir muhim dalil sifatida keltirish mumkin. Bu, o'z navbatida, Orol-bo'yi hududining ekologik muvozanatini yaxshilash, mahalliy aholining hayoti va faoliyatiga salbiy ta'sirini yana-da yumshatish imkonini bermoqda.

Umuman aytganda, hozirgi vaqtda atrof-muhit muhofazasini ta'minlash, bu borada ko'rilayotgan chora-tadbirlar ijrosi samaradorligini oshirish tobora hayotiy zaruratga aylanib boryapti. Bu esa uhsbu yo'nalishdagi ishlarin ro'yobga chiqarishda yanada faollik va mas'ullikni talab qiladi. Zero, davlatimiz rahbari 2021-yilda Janubiy Koreyada bo'lib o'tgan "Yashil o'sish va global maqsadlar uchun hamkorlik — 2030" ikkinchi xalqaro sammitidagi nutqida qayd etganidek, bugungi kunda ona tabiatning o'zi bizga yo'llayotgan oqohlik qo'ng'iroq'iga beparvo bo'lmagimiz kerak.

Mohira XO'JAYEVA,
Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati.

"Xalq so'zıga"
E'lonlar qabul qilinadi.
9.00 dan 18.00 gacha
71-259-74-55
71-259-74-42.
E-mail: reklamas@gmail.ru
reklama@xs.uz

8-sentabr — atoqli avar shoiri Rasul Hamzatov tavallud topgan kun

"SIZLAR — BUYUK SHOIR ALISHER NAVOIYNING VORISLARISIZ"

Agar oshiqlarning o'n mingta bo'lsa
Bilginki alarning sardori menman...

Yurtdoshlarimiz orasida ushbu dilbar qo'shiqni eshitmagan kam topiladi. Milliy qo'shiqchilik san'atimizning taniqli namoyandasi, O'zbekiston xalq artisti Serali Jo'rayev mazkur ashlulani yaratarkan, uning matnini tayyorlashda atoqli avar shoiri Rasul Hamzatov she'ridan ilhomlanganini, g'oya va andoza olganini o'z intervyularida ko'p bor takrorladi. Ikki ulug' ijodkorning qalb qo'ridan yaralgan ushbu tarona xalqimizning ma'naviy mulki bo'lib qoldi.

Chindan ham, Rasul Hamzatovning o'zbek adabiyotini rivojlantirish, ma'naviyatini yuksaltirishda hisssasi katta. Zero, u Sharof Rashidov, Zulfiya, Abdulla Oripov kabi taniqli adiblarimizning qadrdon do'sti bo'lishi bilan birga mumtoz adabiyotimizga ayrica mehr-muhabbat bilan qarardi.

Rasul og'aning xalqimizga, adabiyotimizga va hazrat Alisher Navoiy bo'lgan mehri padari buzrukvoridan o'tgan. Uning otasi Hamzat Sadasa ham avar xalqining mumtoz shoiri edi. Yoshligida puxta diniy bilim olgandi, arab va fors tillarini mukammal bilardi. Shu sababdan hazrat Navoiy asarlarining mohiyati va badiiyligini teran anglardi. 1948-yil 71 yoshga kirgan bo'lishiga qaramay Alisher Navoiy tavalludining 500-yiligi munosabati bilan Toshkentga kelgandi va tantanalni mahallasida buyuk shoirimiz ijodiga bag'ishlangan mazmunli nutq so'zlagandi (o'sha lahzda muhrlangan surat hozirgi kunda uning Sadadagi uy-muzeyida saqlanadi). Shubhasiz, u Alisher Navoiyga bo'lgan mehrini o'g'li Rasulga ham singirdi.

1923-yil 8-sentabr kuni Dog'istonning Xunzax tumanidagi yetmish xonadondan iborat Sada ovulida tug'ilgan Rasul Hamzatov qanday qilib dunyoga mashhur buyuk shoir tarqalariga ko'tarila oldi? Bu savolga ona tilini, millatini, xalqini, qadriyatlarini, Vatanini sevgani va ularni asarlarida osmon qadar ulug'lagani, adabiyotga sadoqat bilan xizmat qilgani uchun deya javob bersak, ayni haqiqatni aytgan bo'lami.

Bag'ririkeng shoir barcha xalqlarning qadriyatlarini hurmat qilardi, ko'plab millatlarning namoyandalari bilan qalin do'st edi. Shoir o'zgalari e'zozladi, o'zgalari ham unga ehtirom ko'rsatdi. Endilikda hamma Rasul Hamzatov deganda Dog'istonni, Dog'iston deganda Rasul Hamzatovni ko'z oldiga keltiradi.

1962-yili mamlakat delegatsiyasi rahbari sifatida Sharof Rashidov, a'zolaridan biri bo'lib Rasul Hamzatov Kuba safariga boradi. Tashrif davomida ilgari tanish bo'lgan ilgiri adibning do'stligi yana-da mustahkamlanadi (bu do'stlik ularning umri bo'yi davom etdi, bir-birlarini tez-tez yo'qlab turishdi). Aynan o'sha yili Rasul og'aning "Yuksak yulduzlar" kitobiga baland maqomdagi Davlat mukofoti berilgandi. Tabiiyki, u bu kitobni do'stiga sovg'a qildi. Sharof Rashidov safardan qaytgach, kitobni nashriyotga tarjima uchun topshirdi. Mohir tilmochlar Mamarasul Boboyev va Zohidjon Obidov kitobni ona tilimizga mahorat bilan o'g'irishdi. Va "Yuksak yulduzlar" kitobi 1964-yili o'zbek tilida nashrdan chiqdi. Shu o'rinda, Rasul og'a O'zbekiston Qahramoni, xalq shoiri Erkin Vohidov muharrirlik qilganini eslatish joiz.

1967-yili Rasul Hamzatovning "Mening Dog'istonim" asarining birinchi kitobi Moskvada rus tilida chop etildi. O'sha vaqtda "Guliston" jurnalining bosh muharriri bo'lgan Ibrohim Rahim bu kitobni tarjima qilishni Erkin Vohidovga topshirdi. Birinchi kitobning boshlang'ich qismi Erkin Vohidov tarjimasida "Guliston" jurnalining 1968-yilgi 1 — 8-sonlarida berildi (eslatma: 5-sonida chiqmagan).

Jurnalda ketma-ket berilayotgan asar xalqimiz tomonidan sevimli bo'ldi.

1968-yil hazrat Alisher Navoiy tavalludining 525-yiligi to'yi munosabati bilan Toshkentga kelgan Rasul Hamzatov tantanalni marosim tanaffusida yosh adabiyotshunoslarimiz bilan suhbatlashdi. U suhbat chog'ida xalqimizga, adabiyotimizga bo'lgan cheksiz hurmatini izhor qildi: **"O'zbek xalqiga havasim keladi. Sizlar — buyuk shoir Alisher Navoiyning vorislarisiz, ulug' millatning farzandlarisiz, katta tiling egalarisiz. Bu bilan faxrlanishingiz, xalqingiz, tilingiz kamoliga xizmat qilishdan charchamasligingiz kerak"**.

Bu so'zlar oz sonli millatlar va ularning tillari yo'qoladi, mamlakatda yagona tilni joriy etishimiz kerak degan safsata g'oya targ'ib qilinayotgan davrda aytilgani bilan ahamiyatlidir. O'sha davrda o'zbek yoshlariga "ulug' millatning farzandlarisiz, katta tiling egalarisiz", degan so'zlarni xalqimizni, boy madaniy merosimizni chin dildan qadrlagan Rasul Hamzatovgina aytishi mumkin edi.

Albatta, jumalistlar mashhur shaxslardan intervyu olishga harakat qilishadi. Tantanali marosim tugaganidan keyin "Toshkent" restoranida ijodkor do'stlari bilan kechki tanovulni boshlagan Rasul og'a oldiga bir jumalist hovliqib kelib deydi:

— Assalomu alaykum, Rasul Hamzatovich! Agar siz menga hozir Navoiy haqida intervyu bermasangiz va bu intervyu ertaga gazetamizda chiqmasa, bosh muharrir meni ishdan haydaydi.

- Rasul og'a vazmin holda undan so'raydi:
- Ayt-chi, birodar, musulmonmisan?
- Alhamdullillo, musulmonman.
- Alhamdullillo, men ham musulmonman. O'zing ayt, musulmon kishi tahorat olmasdan namoz o'qishi mumkinmi?
- Yo'q.
- Men hozirgina muqaddas kitobimiz taqiangan mana bu konyakdan ho'plab qo'ydim, tahoratim buzildi. Ul zotning nomini tahorat olmasdan tilga ololmayman, ertalab kel, tahorat olib seni kutib turaman. O'shanda intervyu olasan.

Afsuski, o'sha mustabid tuzum davrida, to'g'iroq'i, din haqida hatto so'zlash taqiangan vaqtga mu suhbatni, ya'ni ibratli intervyuni yozib bo'lmadi. Oradan qirq yil o'tib bu suhbat tafsilotini o'sha voqeaga guvoh bo'lgan sevimli adibimiz O'tkir Hoshimov o'z esdaliklarida yozdi. Endi bu intervyuni barchamiz qunt bilan o'qishimiz va she'riyat sultoni bo'lgan hazrat Alisher Navoiy bobomizni e'zozlashda Rasul Hamzatovdan ibrat olishimiz kerak.

1972-yil 8-may kuni Chirchiq shahrida Rasul Hamzatovning "Turnalar" qo'shiqi shahidlar xotirasiga bunyod etilgan yodgorlikning ochilish marosimi bo'lib o'tdi. Bu xabarni eshitgan Rasul og'a misoli qanot bog'lab O'zbekistonga uchib keldi va birinchi navbatda yodgorlikni ziyorat qilishga oshiqdi (umuman olganda, Rasul og'a O'zbekistonga kelganda, albatta, "Turnalar" yodgorligi ziyoratiga borardi). Shoir yodgorlikni ko'rgach, hayratlanib hamrohlariga baralla: **"Qo'shiqqa madaniyatli va san'atsevar xalqigina haykal qo'yadi. O'zbek xalqi ana shunday madaniyatli va san'atsevar xalq"**,



dedi. Rasul og'a bu so'zlarini nufuzli davralarda va katta anjumanlarda ham ko'p bor hayjon bilan takrorladi. Shoir so'zlaridan boshqa xalqlar ibrat olishib, o'zlarida "Turnalar" qo'shiqiga yodgorlik o'rnatish ishlarini boshlab yuborishdi. Shu tariqa hozirgi kunda dunyoning 180 dan ortiq manzillarida "Turnalar" qo'shiqiga yodgorlik bunyod qilindi va bunday xayrli ishlar hamon davom etmoqda. Biroq "Turnalar" qo'shiqiga yodgorlik birinchi bo'lib Chirchiq shahrida qo'yilgani bilan har qancha faxrlansak arziydi. Hatto Dog'istondagi Gunib tog'i bag'riga qo'yilgan "Turnalar" yodgorligi 1986-yilda ochilgan.

1975-yil Toshkentda sevimli shoirimiz Zulfiyaning 60-yillik to'yi nishonlandi. Unda Rasul Hamzatov shoirimiz ijodiga bag'ishlangan ta'sirchan nutq so'zlagandi. Umuman, Rasul og'a Zulfiyani dunyoning buyuk shoirasi sifatida e'zozladi va anjumanlarda shoirimizga hurmatini izhor etardi. O'z navbatida, Zulfiya opa ham Rasul Hamzatovni qadrlardi.

Hamon adabiyot ahli o'tgan asrning 60 — 80-yillaridagi "Oltin avlod" adabiy davrasini havas bilan esga oladi. Anjumanlar mahali dunyoga taniqli adiblar — bolqor Qaysin Quliyev, avar Rasul Hamzatov, boshqird Mustay Karim, qalmoq Davud Qug'ultinov, qirg'iz Chingiz Aytmatov va ularning maslakdoshlari davra qurishardi. Ularning har biri nisbatan kam sonli millatlarga mansub bo'lib, Rasul aka goho hazil aralash: "Biz "natsmen"miz" (milliy ozchilikmiz), deb qo'yardi. Bu so'zning tagida teran mazmun bo'lib, o'sha ijodkorlarning har biri o'z millati manfaatlarini astoydil himoya qilardi. Davraboshi bo'lgan Qaysin Quliyev 1969-yili Moskvadagi yoshlar seminarida o'zi kashf qilgan Abdulla Oripovni ham davraga qo'shgan. Shu tariqa O'zbekiston Qahramoni, xalq shoiri Abdulla Oripov ulug' adiblar shubhatidan bahramand bo'ldi va ularga monand ravishda bo'y rostdi. Bejiz, cho'qqi cho'qqilarga qarab bo'y rostdaydi, deya aytilmagan.

Katta davrda fikrlari sayqallangan Abdulla Oripov dunyo adabiyotining javohirlaridan biri bo'lgan Rasul Hamzatovning "Mening Dog'istonim" kitobi haqida shunday so'zlarni bitgandi: *"Ushbu asarda shoirning butun borlig'i: dunyoqarashi, ma'naviyati, iztirobi, armoni, faxri va g'ururi — barcha-barchasi mujassam. Bu bepoyon tuyg'ularni esa Rasul akaning o'z ona tiliga, mitti bo'lsa ham yagona Dog'istonga cheksiz muhabbati birlashtirib turadi. Kitobda yuzlab, minglab yombi fikrlarni, hikmatlarni uchratish mumkin. Muallif ajodlar, zamondoshlar tajribasiga tayanadi. Har qanday siyosatning igna ko'zidek teshigidan ham "tuya"ni bema'lol o'tkaza oladi. Mana buni mahorat desa bo'ladi"*. Bunday purma'no so'zlarni Rasul Hamzatovning "Onalarni asrang", "Shomilning muhabbati", xullas, har bir asari haqida aytilsa ham hech bir mubolag'a bo'lmaydi.

Xalqimiz doshqozonda pishgan oshning mazasini bilish uchun qoshiqda olib tatib ko'rish kifoya

deydi. Darhaqiqat, Rasul Hamzatov asarlarini varaqlab, istagan joyidan durday porlab turgan biron misrasini o'qish kifoya. *"Mening Dog'istonim" badiasidagi "Odam faqat atama emas — unvon. Unvon bo'lganda ham juda yuksak unvon. Bu yuksak unvonga munosib bo'lish uchun bir umr intilish kerak"*, *"Onalarni asrang" dostonidagi "Dunyoda onasi borlar baxtiyor"*, *"Shomilning muhabbati" dostonidagi "Olohnning karami keng, ishq oldida hamma teng" kabi quyma misralarga ko'z yugurtirishigiz bilan dilingiz yorishadi, shu asarlarni to'liq o'qib chiqmaguncha tinchimsaysiz.*

Qatrada quyosh aks etganidek, Rasul Hamzatov adabiyotga olib kirgan "Yozuvlar" muxtasar janrida ham olam-olam hikmatlar mujassam. Birgalikda ko'zadagi yozuvlarini o'qiylik.

Oddiy gildan yasaladi eng go'zal ko'za,
Oddiy so'zdan yaraladi she'riy mo'jiza.

Shoir "eng go'zal ko'za", "she'riy mo'jiza" tashbellari orqali insoniyat ibtidosi va qudratli so'zni vasf etyapti.

Rasul og'aning Sharq mumtoz ruboiylari bilan bag'irlashadigan to'rtliklarining ham badiiyligi puxta, mazmuni teran va ko'lami keng.

Dog'iston osmoni ostida shu zum,
Iqror bo'ldim, baland dovondan osha.
Shoir bo'lish uchun erta tug'ildim,
Rasul bo'lish uchun kechikdim rosa.

Shukrki, Rasul og'a har bir ijodkor oshishi lozim bo'lgan baland dovondan ertaroq oshib o'tdi, safsatabozlik va she'riyat boshqa-boshqa narsa ekanligini ertaroq tushundi, o'zligini ertaroq angladi. **"Shoirning vazifasi odamlarning Yer yuzida go'zal va baxtli hayot kechirishlariga yordam berishdan iborat. Bunday sharafli vazifani bajarishi uchun shoir o'z ishini ustasi bo'lishi lozim"**, degan boqiy tamoyiliga asosan she'rlar va boshqa janrdagi asarlarini yozdi. Bunday umuminsoniy asarlar Rasul Hamzatovni jahon xalqlari hurmatiga sazovor etdi. Shoir umrboqiy asarlari uchun ko'plab davlatlarning nufuzli unvon va mukofotlariga munosib ko'rildi. 1977-yil 8-martda koinotda kashf etilgan 7509-raqamli asteroid "Hamzatov" nomi bilan ataldi.

Kitobxonlar Rasul Hamzatovni muhabbat kuchishi sifatida ham hurmat qilishadi. Uning sevgiga bag'ishlangan oddiy va samimiy she'rlari o'quvchilarning yuraklaridan joy oladi.

Agar sen bo'lmasang yorug' olamda,
Mening har bir kunim o'tardi karaxt.
Senz men hech kim yoqmasdi g'amda,
Senz menga hech kim berolmasdi baxt.

Senz ishq o'tida qanday yonardim,
Safardan sog'inib kelardim kimni?
Agar sen bo'lmasang qanday yozardim,
Ishqqa bag'ishlangan ash'orlarimni?

Sening ko'zlarini ko'rmasa agar,
Bulbul sayramasdi, ochilmasdi gul.
Yulduzlar porlamas edi kechalalar,
Kunduzlar quyosh ham chiqmasdi butkul.

Agarda olamda yashamasang sen,
Hozirgiday baxtli bo'lmas edim men.

Shoirning har bir she'ri, asari haqida qancha yozgan bilan to'liq ta'riflash mushkul. Muhtaram shoirimizning bu haqda shunday fikri bor: **"Qanday qilib, gaplar bilan qo'shiqni ulug'lash mumkin? Qanday qilib, choynak jo'mragidan suv quyib tog' jilg'asining shiddatini oshirish mumkin? Qanday qilib, puflab shamolni kuchaytirish mumkin? Qanday qilib, bir bo'lak qor tashlab qorli tog'ni ulug'vor qilish mumkin?"** Shu bois oqiz qalamimiz asarlari haqida qancha yozmasin, Rasul Hamzatov atalmish yuksak cho'qqini to'liq ta'riflashga imkonli yetmaydi.

Hozirgi kitobxonlarimizning omadi shundaki, katta adadda yetti marta nashr qilindi. Uning asarlari ko'plab to'plamlarimizga, darsliklarimizga kiritilgan, muntazam ravishda gazeta-jurnallarimizda berilmoqda, internet saytlariga qo'yilgan, maktablarimizda ibratli hayotidan ta'lim berish bo'yicha darlar joriy etilgan. Sevimli san'atkorlarimiz Botir Zokirov "Qaydasan baxt?", Mansur Toshmatov "Turnalar", Serali Jo'rayev "Ona" she'rini qo'shiq qilib kuylashgan. Shu bois yurtimizda Rasul og'aning asarlari kirib bormagan biror o'zbek xonadoni yo'q, desak, xata emas.

Ardoqli shoirning 75-yillik tavallud to'yi munosabati bilan Dog'istonga borgan Abdulla Oripov uni O'zbekistonga taklif qildi. **"Men o'zbek do'stlarimning xotirasida sog'lom, tetik Rasul sifatida qolishni istayman"**, dedi u bir oz mungli va lekin o'ktam ovoza. Umr omonat, Rasul Hamzatov 2003-yil 3-noyabr kuni vafot etdi.

Darhaqiqat, Rasul Hamzatov o'zbek kitobxonlari xotirasida sog'lom, tetik qiyofada qoldi va yurtimizda uning o'ktam ovozi hamon yangrayapti va bundan keyin ham yangrayveradi. U mashhur "Turnalar" she'rini shunday misralar bilan tugatgandi:

Qazo haqdirl! Men ham yashab umrimmi
Turnalar safida parvoz etaman.
Va yerdan qolgan siz, azizlarimni,
Samodan nomma-nom yo'qlab o'taman.

Haqiqatan ham, uning ruhi shom mahali oppoq turnalar safida osmonimiz uzra parvoz etayotganda yurtimizda o'tkazgan shukuhl damlarini eslab, o'zbekistonlik qadrdonlarini nomma-nom yo'qlab o'tyapti. Xalqimiz ham adabiyotimizning katta do'sti bo'lgan Rasul Hamzatov tavalludiga 100-yil to'layotgan kunlarda uning kitoblarini yana-da ko'proq o'qib, she'ronlik, xotira kechalari tashkil qilib, ruhini shod etmoqda. Zero, hozirgi kunda butun dunyo bo'ylab "Bizning Rasul. Mening Dog'istonim" shiorni ostida o'tkazilayotgan tadbirlardan ko'zlangan maqsad ham shu.

Asror MO'MIN,
shoir va tarjimon,
O'zbekiston Respublikasida
xizmat ko'rsatgan jurnalist.

REKLAMA

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI 2024-YIL UCHUN QUYIDAGI IXTISOSLIKLAR BO'YICHA TAYANCH DOKTORANTURA, DOKTORANTURA, STAJYOR-TADQIQOTCHILIKKA QABUL E'LVON QILADI.

No	Ixtisoslik shifri va nomi
1.	08.00.01 — Iqtisodiyot nazariyasi
2.	08.00.02 — Makroiqtisodiyot
3.	08.00.03 — Sanoat iqtisodiyoti
4.	08.00.04 — Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
5.	08.00.05 — Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
6.	08.00.06 — Ekonometrika va statistika
7.	08.00.07 — Moliya, pul muomalasi va kredit
8.	08.00.08 — Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
9.	08.00.10 — Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
10.	08.00.11 — Marketing
11.	08.00.12 — Mintaqaviy iqtisodiyot
12.	08.00.13 — Menejment
13.	08.00.14 — Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
14.	08.00.15 — Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
15.	08.00.16 — Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
16.	08.00.17 — Turizm va mehmonxona faoliyati
17.	09.00.04 — Ijtimoiy falsafa
18.	13.00.02 — Ta'lim-tarbiya nazariyasi va metodikasi
19.	13.00.07 — Ta'limda menejment

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 22-maydagi "Oliy ta'limdan keyingi ta'lim tizimini yana-da takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 304-sonli qaroriga muvofiq tayanch doktorantura, doktorantura, stajyor-tadqiqotchilik va mustaqil izlanuvchilikka quyidagi hujjatlar so'raladi:

Tayanch doktoranturaga (PhD) talabgorlar uchun: ariza, qisqacha biografik ma'lumotnoma, mehnat daftarchasining belgilangan tartibda tasdiqlangan nusxasi (ishlayotgan talabgorlar uchun), oliy ta'lim muassasasi magistratr va bakalavr diplomlari hamda uning ilovalari, nashr etilgan ilmiy ishlar ro'yxati (tayanch doktoranturaga kirish uchun talabgorlarda tanlangan dissertatsiya tadqiqoti asosini tashkil qilishi mumkin bo'lgan ilmiy jurnallarda kamida 1 ilmiy maqola va 2 tezis) va ularning nusxalari, dissertatsiya rejasining mufassal loyihasi (asosnoma), xorijiy tilni bilish darajasini tasdiqlovchi sertifikat, ilmiy rahbarning rozilik xati.

Doktoranturaga (DSc) talabgorlar uchun: ariza, qisqacha biografik ma'lumotnoma, mehnat daftarchasining belgilangan tartibda tasdiqlangan nusxasi (ishlayotgan talabgorlar uchun), oliy ta'lim muassasasi magistratr va bakalavr diplomlari hamda uning ilovalari, nashr etilgan ilmiy ishlar ro'yxati (tayanch doktoranturaga kirish uchun talabgorlarda tanlangan dissertatsiya tadqiqoti asosini tashkil qilishi mumkin bo'lgan ilmiy jurnallarda kamida 1 ilmiy maqola va 2 tezis) va ularning nusxalari, dissertatsiya rejasining mufassal loyihasi (asosnoma), xorijiy tilni bilish darajasini tasdiqlovchi sertifikat, ilmiy rahbar yoki mashlahatchining rozilik xati.

Stajyor-tadqiqotchilikka talabgorlar ariza, qisqacha biografik ma'lumotnoma, nusxasi (ishlayotgan talabgorlar uchun), oliy ta'lim muassasasi magistratr va bakalavr diplomlari hamda uning ilovalari, nashr etilgan ilmiy ishlar ro'yxati (tayanch doktoranturaga kirish uchun talabgorlarda tanlangan dissertatsiya tadqiqoti asosini tashkil qilishi mumkin bo'lgan ilmiy jurnallarda kamida 1 ilmiy maqola va 2 tezis) va ularning nusxalari, dissertatsiya rejasining mufassal loyihasi (asosnoma), xorijiy tilni bilish darajasini tasdiqlovchi sertifikat, ilmiy rahbar yoki mashlahatchining rozilik xati.

Stajyor-tadqiqotchilikka talabgorlar ariza, qisqacha biografik ma'lumotnoma, nusxasi (ishlayotgan talabgorlar uchun), oliy ta'lim muassasasi magistratr va bakalavr diplomlari hamda uning ilovalari, nashr etilgan ilmiy ishlar ro'yxati (tayanch doktoranturaga kirish uchun talabgorlarda tanlangan dissertatsiya tadqiqoti asosini tashkil qilishi mumkin bo'lgan ilmiy jurnallarda kamida 1 ilmiy maqola va 2 tezis) va ularning nusxalari, dissertatsiya rejasining mufassal loyihasi (asosnoma), xorijiy tilni bilish darajasini tasdiqlovchi sertifikat, ilmiy rahbar yoki mashlahatchining rozilik xati.

mehnat daftarchasining belgilangan tartibda tasdiqlangan nusxasi (ishlayotgan talabgorlar uchun), ish joyidan tavfsifnoma, oliy ta'lim muassasasi magistratura diplomlari va uning ilovalari, nashr etilgan ilmiy ishlar ro'yxati, shuningdek, ularning nusxalari, dissertatsiya rejasining mufassal loyihasi (asosnoma) va ilmiy mashlahatchining rozilik xatini topshiradilar.

Hujjatlar O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining <http://phd.mininnovation.uz/> veb-saytiga OneID orqali ro'yxatdan o'tib joylashtiriladi. Hujjatlarning asl nusxalarini yig'majild shaklida universitetning ilmiy tadqiqotlar va innovatsiyalar departamentiga topshirish mumkin.

Hujjatlar 2023-yil 15-sentabr dan 15-oktbrgacha bo'lgan davrda qabul qilinadi.

Qo'shimcha ma'lumot olish uchun Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining ilmiy tadqiqotlar va innovatsiyalar departamentiga murojaat etish mumkin. Tel.: 71-239-01-43, Manzil: 100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 49-uy, Madaniyat saroyi, 2-qavat. doctorant.tsue.uz

Xalq so'zi

Narodnoe slovo

MUASSISLAR:
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi
Qonunchilik palatasi Kengashi
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi
Senati Kengashi

Bosh muharrir O'tkir RAHMAT

2020-yil 25-martda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 0001-raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr indeksi — 229.
Buyurtma G 941.33 058 nusxada bosildi. Hajmi — 2 ta boq. Ofset usulida bosilgan. Qog'oz bichimi A-2.
Bahosi kelishilgan narxda.

Gazetamiz haqidagi ma'lumotlarni yuklab olish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.

TELEFONLAR:
Devonxona 71-259-74-51; **Kotibxona** 71-259-74-53;
e'lonlar 71-259-74-55.

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqzir qilinmaydi va
maullifga qaytarilmaydi.

Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan
tashkilot javobgar.

Gazeta tahririyat kompyuter markazida terilishi hamda operator
M. Begmatov tomonidan sahilalandi.

Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga "Sharq" nashriyot-
matbaa aksiyadorlik kompaniyasi ma'sul.
Bosmaxona telefon: 71-233-11-07.

MANZILIMIZ:
100066,
Toshkent shahri,
Islom Karimov ko'chasi, 55-uy.
Navbatchi muharrir F. Bozorov.
Musahih S. Islomov.

"Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi. Korxonada manzili:
Buyuk Turon ko'chasi, 41. O'za yakuni — 23.50 Topshirildi — 01.25

1 2 3 4 5 6